





ELEKTRON ILMIY JURNAL

04 | 2024



LINGVOOLAM



Ilmiy-elektron jurnal



Toshkent – 2024



TAHRIR HAY'ATI:

N. RAMAZONOV
(bosh muharrir)
SH. KO'CHIMOV
G. GULYAMOVA
D. HOSHIMOVA
G. ZIKRILLAYEV
SH. ZIYAMUHAMEDOVA
N. NIYAZOVA
D. RASULMUHAMEDOVA
S. AKOBIROVA
N. BOZOROVA
F. SAFAROV
A. FATTAXOVA
D. RAXMONOVA
N. BABADJANOVA
R. MATENOV
U. PO'LATOVA

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
22.06.2021-yilda ro'yxatga olingan. Ro'yxat raqami 1193.



ISSN 2181-2012

©"Lingvoolam" jurnali tahriryati, 2024

©Mualliflar jamoasi, 2024



MUNDARIJA

Mavluda Axmedshayeva. Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini lingvistik ekspertizadan o'tkazishning ayrim nazariy-huquqiy masalalari.....	5
Firuz Safarov, Erkin Jumayev. O'zbek adabiy tilida so'roq gap va o'zlashtirmalik.....	11
Shuhrat Ko'chimov, Go'zaloy Mamedova. O'zbek diplomatik tili va uning o'ziga xos pragmatik xususiyatlari	22
Sarvara Akobirova. Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida xorijiy til ta'limi va uning istiqbollari.....	30
Oxunjon Abdullayev. Yuridik terminlarning zamonaviy izohli lug'atini tuzish masalalari	37
Nafisa Ashirbayeva. Huquqiy terminlarning izohlanishi va lug'atlarda ifodalanishi	42
Raxima Odilova. Hikoyalarda bola obrazi: badiiy niyatni amalga oshirishda portretning o'rni	47
Jahongir Kurbanov. Historical and legal analysis of legal regulation of the state language	52
Akram Hamdamov. Milliy tilning jozibasi	63
Nilufar Xodjayeve, Farhod Eliboyev. Sud-tergov faoliyatiga oid yuridik terminlarni tarjima qilishda uchraydigan ayrim muammolar (o'zbek va ingliz tillari misolida)	68
Diloromxon Ismoilova. Huquqiy terminologiyani ilmiy-nazariy asoslari.....	78
Rasuljon Tojimatov. She'riy matn lingvopoetik tahlilining asosiy tushunchalari va nazariy manbalari	81
Odilbek Ashirov. "Codex Cumanicus" tadqiqiga oid qarashlar	86
Nozima Xusniddinova. "O'tkan kunlar" va bugungi kunimiz.....	91



Mavluda Axmedshayeva,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Davlat va huquq nazariyasi kafedrası professori,
yuridik fanlar doktori

NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR LOYIHALARINI LINGVISTIK EKSPERTIZADAN O'TKAZISHNING AYRIM NAZARIY-HUQUQIY MASALALARI

O'zbekiston huquqiy tizimi o'z xususiyatlariga ko'ra roman-german huquqiy oilasiga yaqin turadi. Mazkur huquqiy oilaga mansub davlatlarda huquq manbalari tizimida qonun juda muhim o'rin tutadi. Normativ-huquqiy hujjatlarning muhim turi bo'lgan qonun o'z mohiyatiga ko'ra eng muhim va barqaror ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi hamda yuqori yuridik kuchga ega.

Aytish joizki, qonunlarning sifati, ularning hayotchanligi, ijtimoiy munosabatlarni samarali tartibga solishi, umuman olganda samaradorligi ko'pgina omillarga bog'liq. Ushbu omillar ichida qonun matnining aniqligi, ravonligi, qonun chiqaruvchining ifoda etmoqchi bo'lgan ma'noni to'g'ri ifodalashi muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu munosabat bilan mamlakatimizda qonunlarning davlat tilida ishlab chiqilishi juda mantiqiy ish bo'lib, u ma'lum darajada siyosiy ahamiyatga ham ega. Binobarin avvalgi tuzum sharoitida va yaqin yillargacha qonunlar avval rus tilida yozilib, keyin davlat tiliga o'girilar edi.

Ayni chog'da O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasida o'zbek tilining davlat tili maqomi mustahkamlab qo'yilganligi katta ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy ahamiyatga ega [1].

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi O'RQ-682-son qonuni "Normativ-huquqiy hujjat loyihasini normativ-huquqiy hujjat qabul

qilish huquqiga ega bo'lgan organga kiritish" deb nomlangan 32-moddasida "Tayyorlangan normativ-huquqiy hujjat loyihasi normativ-huquqiy hujjat qabul qilish huquqiga ega bo'lgan organga davlat tilida kiritiladi. Zarur bo'lgan hollarda, uning boshqa tillardagi tarjimasi taqdim etilishi mumkin" deb mustahkamlab qo'yilgan [2].

Ijtimoiy munosabatlarning eng muhimlarini tartibga soladigan qonunlarning sifatini ta'minlashda qonunlarning tili va yuridik texnika talablariga mos kelishi masalasi muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi O'RQ-682-son qonunining 25-moddasida ("Normativ-huquqiy hujjat loyihasining ekspertizasi) "Normativ-huquqiy hujjat loyihasi huquqiy va korrupsiyaga qarshi ekspertizalardan o'tkazilishi shart.

Normativ-huquqiy hujjat loyihasi ishlab chiquvchining yoki normativ-huquqiy hujjat qabul qilish huquqiga ega bo'lgan organning qaroriga ko'ra iqtisodiy, moliyaviy, ilmiy, lingvistik, ekologik ekspertizadan, shuningdek boshqa turdagi ekspertizalardan o'tkazilishi mumkin" deb mustahkamlab qo'yilgan [3].

Binobarin, lingvistik ekspertiza bu – loyiha matnining davlat tili qoida va talablariga muvofiqligini mutaxassis tomonidan o'rganilishi bo'lsa, lingvistik ekspertiza obyekti bo'lib esa – bevosita normativ-huquqiy hujjat loyihasi matni hisoblanadi.

Lingvistik ekspertizani o'tkazishdan asosiy maqsad nima? – Loyiha matnini davlat tili qoida va talablariga moslash, yangi atamalarni to'g'ri qo'llash hamda grammatika, imlo, punktuatsiya qoidalariga muvofiq bo'lishini ta'minlash.

Asosiy vazifasi esa:

- loyiha matnining davlat tili qoida va talablariga, jumladan, imlo, uslubi, grammatik va orfografiya qoidalariga mos bo'lishini ta'minlash;

- loyihada soha atamalarining to'g'ri qo'llanilishi, yangi atamalar qo'llanilganda, ularga mos ta'rif berilishini tekshirish;

– loyiha matni aniq va tushunarli bayon qilinganligi, soʻz birikmalari toʻgʻri tanlanganligiga va oʻzaro toʻgʻri bogʻlanganligiga baho berish;

– loyiha matnidagi tushuncha va atamalarining maʼnosiga muvofiq yagona shaklda va toʻgʻri qoʻllanishini taʼminlash [4].

Binobarin, qonunlarning tili belgilangan talab darajasiga mos boʻlishida lingvistik ekspertizaning oʻrni va roli muhim. “Qonun loyihasining yurislingvistik ekspertizasi qonun matnlarining funksional-stilistik xususiyatlarini hisobga olgan holda taqdim etilgan matnning hozirgi zamon adabiy tili normalariga muvofiqligini baholashdan iboratdir” [5].

Aytish joizki, qonun loyihalarining yuridik lingvistik ekspertizasi birmuncha murakkab intellektual jarayon boʻlib, u qator talablar asosida amalga oshirilish kerak. Bugungi kunda amaldagi qonunchilikka koʻra, qonun loyihasi matnini lingvistik ekspertizadan oʻtkazishning quyidagi talablari mavjud:

- jumalarning soddaligi va qisqaligi, taʼriflarning aniqligi;
- imlo, uslubiy, grammatik va orfografiya qoidalariga mosligi;
- yangi atamalar, shuningdek, soha atamalarining toʻgʻri qoʻllanganligi;
- soʻz birikmalarining oʻzaro toʻgʻri bogʻlanganligi;
- bayonning tizimlilik va ifodali ketma-ketligi.

Shu bilan birga ilmiy manbalarda ham yuridik lingvistika oʻtkazishning talablari haqida ilmiy fikrlar bildirilgan. Jumladan, yuridik lingvistika boʻyicha mutaxassis X.S.Xayitovning yozishicha, qonun loyihalarini yuridik lingvistik ekspertizadan oʻtkazishda quyidagi talablarga ham rioya etilishi lozim: qonun loyihasidagi atamalar va iboralar Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, konstitutsiyaviy qonunlari tamoyillari va talablariga mosligini taʼminlash; qonun loyihasidagi soʻzlar va iboralarining oʻzbek adabiy tili qoidalariga mosligini taʼminlash; qonun loyihasi loʻnda, aniq, oddiy va ravon tilda, tushunarli tarzda ifodalanishi; qonun tilining rasmiyligi; qonun tilining xalqchilligi; qonun tilining ilmiylik asoslantirilganligi; qonun tilining xolisligi

va to'liqligi [6]. Ushbu talablarga to'liq rioya etilishi lingvistik ekspertizaning maqsadiga erishishga imkon beradi.

Ta'kidlash kerakki, bugungi kunda qonun chiqaruvchi hokimiyat O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan amalga oshiriladi. Tegishli Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Devoni tarkibida "Lingvistik ekspertiza, tarjima va tahririyat" bo'limi, Senat Nazorat tahlil Boshqarmasi tarkibida "Tarjima va tahrir" bo'limi mavjud bo'lib, ushbu tuzilmalar ham qonun loyihalari tilining talab darajasida bo'lishiga muayyan hissa qo'shadi.

Qonun loyihalarining lingvistik ekspertizasi haqida fikr yuritir ekanmiz, dastavval bu jarayonning qanday huquqiy asoslari va amalga oshirish mexanizmi bor, degan masalaga e'tibor qaratishimiz zarur bo'ladi.

Mamlakatimizda qonun loyihalarini lingvistik ekspertizadan o'tkazish jarayonining bugungi kunda yetarli darajada huquqiy asoslari mavjud, desak asosli bo'ladi.

Bugungi kunda normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini lingvistik ekspertizadan o'tkazish bu haqdagi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 28-oktyabrdagi 662-son qarori bilan tasdiqlangan "Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini lingvistik ekspertizadan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom normalari bilan tartibga solinadi [7].

Ushbu Nizomda 2023-yil 1-yanvardan boshlab loyihani ishlab chiquvchining tashabbusi bilan yoxud topshiriqqa asosan vazirlik, idoralar bilan kelishishdan oldin loyiha matni davlat tili qoida va talablariga muvofiqligini tekshirish maqsadida lingvistik ekspertizadan o'tkazilishi belgilab qo'yildi.

Shu o'rinda ushbu, ya'ni "Davlat tili qoida va talablari" deganda nimalar nazarda tutiladi? - degan savol tug'ilishi tabiiy. Demak, davlat tili qoida va talablari — o'zbek adabiy tilining imloviy, uslubiy, leksik-grammatik, grafik va punktuatsiya qoidalari, atamalarni to'g'ri qo'llash va matnda mantiqiy xatoliklarga yo'l qo'ymaslik talablari va b. [8]

Qonun loyihalarini lingvistik ekspertizadan o'tkazish subyektlari masalasi ham muhim hisoblanadi. Lingvistik ekspertiza loyihani ishlab chiquvchi davlat boshqaruvi organlari, xo'jalik birlashmalari rahbarlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar, tuman (shahar) hokimlarining ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to'g'risidagi qonunchilik hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash masalalari bo'yicha maslahatchisi tomonidan amalga oshiriladi.

Shu bilan birga lingvistik ekspertizani o'tkazish jarayoniga yana kimlarni jalb etish mumkin? ishlab chiquvchining tashabbusi bilan davlat organlarining ilmiy va ta'lim tashkilotlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari vakillari, ilmiy daraja yoki ilmiy unvonga ega bo'lgan fuqarolar, shuningdek, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markazi hamda uning hududiy bo'linmalari ham shartnoma asosida jalb qilinishi mumkin.

Ayni paytda amaldagi qonunchilikka ko'ra lingvistik ekspertizadan o'tkazish ixtiyoriymi yoki barcha normativ-huquqiy hujjatlar bunday ekspertizadan o'tkazilishi shartmi degan masala muhim ahamiyat kasb etadi. Amaldagi qonunchilikka ko'ra faqat davlat tili va uni rivojlantirishga oid qonunchilik hujjatlarining loyihalari lingvistik ekspertizadan o'tkazilishi shart, qolgan loyihalar esa ishlab chiqaruvchining tashabbusiga ko'ra amalga oshiriladi.

Shu bilan birga normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini lingvistik ekspertizadan o'tkazishni tashkil etish va amalga oshirish jarayonini yanada takomillashtirish imkoniyatlari ham mavjud, bizningcha.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, bugungi kunda lingvistik ekspertizani o'tkazishda yagona amaliyot, kuchli uslubiy baza, ilmiy asoslangan uslubiy ko'rsatmalarga muayyan

ehtiyoj mavjud. Bundan tashqari mazkur ekspertizani o'tkazish subyektlari bo'lgan rahbarlar maslahatchilarining huquqiy bilimlarini, ko'nikmalarini kuchaytirish zarurati mavjud. Maslahatchilar vazifasini o'tayotgan shaxslarda ekspertlik malakasini mustahkamlash maqsadida maxsus kurslar tashkil etilib, ularda maslahatchilarni tizimli tarzda o'qitish masalasi muhim.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi//<https://lex.uz/docs/6445145>

2. O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi O'RQ-682-son qonuni <https://lex.uz/docs/5378966>

3. O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi O'RQ-682-son qonuni // <https://lex.uz/docs/5378966>

4. Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini lingvistik ekspertizadan o'tkazish tartibi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori (28.10.21 662-son VMQ)// <https://lex.uz/ru/docs/5701504>

5. Abdullayev B. Yurislingvistik ekspertiza – qonunlar mukammalligining omili // Huquq va burch – Toshkent, – 2008. – № 11. – B. 40.

6. Hayitov X.S. Qonun ijodkorligida yuridik-lingvistik ekspertiza o'tkazishning tashkiliy-huquqiy masalalari. Monografiya.T., 2012. – B.76.

7. Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini lingvistik ekspertizadan o'tkazish tartibi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori (28.10.21 662-son VMQ)// <https://lex.uz/ru/docs/5701504>

8. Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini lingvistik ekspertizadan o'tkazish tartibi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori (28.10.21 662-son VMQ)// <https://lex.uz/ru/docs/5701504>

Firuz Safarov,

Buxoro davlat pedagogika instituti dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Erkin Jumayev,

Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

O'ZBEK ADABIY TILIDA SO'ROQ GAP VA O'ZLASHTIRMALIK

Kirish. Kommunikativ maqsad kategoriyasining umumiy ma'nosi ko'rinishlaridan biri bo'lgan o'zlashtirma so'roq haqida shu vaqtga qadar deyarli ma'lumot yo'q. Binobarin, uni uzvli, kontekstual va matniy tahlil qilish maqsadga muvofiq.

Asosiy qism. Kommunikativ grammatik ma'no shaxsning nutqiy faoliyati (amali) bilan bog'liq. Shaxs nutqiy amalda so'zlovchi, tinglovchi va o'zga vazifasini bajaradi. Shunga ko'ra nutq so'zlovchi (muallif)ning o'z nutqi va o'zga(lar)ning nutqi ko'rinishiga ega. So'zlovchi (muallif) nutqning ikkala turida ham har bir nutqiy amaldan muayyan maqsadni ko'zlaydi. Bu maqsad gap hosil qiluvchi lisoniy vositalar bilan ifodalanib, xabar, buyruq, istak, so'roq kabi ko'rinishlarda voqelanadi. So'roq gap, asosan, darak gap (xabar), qisman buyruq, istak gapdan hosil bo'ladi. Shuning uchun, avvalo, shularni qisqacha bayon qilamiz.

Buyruq, istak gapning kesimi, asosan, buyruq maylidagi fe'l bilan ifodalanadi. Uning uch xil ko'rinishi bor: 1) bevosita buyruq (II shaxsga qaratilgan), 2) bilvosita buyruq (III shaxsga qaratilgan), 3) o'zlashtirma buyruq (asosan II shaxsga qaratilgan). Ikkinchi tur birinchi turdan, uchinchi tur ikkinchi turdan yasaladi.

Darak gapning kesimi buyruq-istak maylidan boshqa mayl shakllari bilan ifodalanadi. Bunday gaplarda xabar uch xil ko'rinishda namoyon bo'ladi: 1) so'zlovchi bevosita kuzatib bayon qilgan xabar, 2) bilvosita xabar, ya'ni so'zlovchi bevosita kuzatmay bayon qilgan xabar, 3) o'zgalarning aynan va qisman o'zgartirilgan xabari, ya'ni ko'chirma yoki o'zlashtirma xabar.

Nutqiy amal talabiga ko'ra xabarning muayyan qismi noma'lum, noaniq bo'lganda so'zlovchi so'roq gapdan foydalanadi. Bunda u tinglovchidan javob kutadi. So'roqning ham uch turi mavjud: 1) bevosita so'roq, 2) bilvosita so'roq va 3) o'zlashtirma so'roq. Bevosita so'roqda so'zlovchi tinglovchiga bevosita murojaat qilib, xabarning noma'lum qismini aniqlashni ko'zda tutadi. Bunday holda kesim vazifasida fe'lning bevosita kuzatilganlikni ifodalaydigan shakllari qo'llanadi. Bilvosita so'roq bevosita kuzatmaganlikni ifodalovchi shakllar qo'llangan xabarning uyoki bu noma'lum qismi haqida so'raladi. O'zlashtirma so'roqda ssbevosita kuzatmaganlikni ifodalovchi shakl (vosita) lar eshitilganlikni ifodalash uchun qo'llanganda uning noma'lum jihati so'raladi, ya'ni tinglovchidan javob talab qilinadi. Bunday holda tejamkorlik yuqori darajada zuhur bo'ladi. O'zlashtirma xabar olgan tarzida bo'lsa o'zlashtirma so'roq olgan ekanmi, kim olgan ekan qachon olgan ekan va hokazo shaklda bo'ladi. endi (quyida) o'zlashtirma so'roqning tuzilishi va nutqiy xususiyati (kommunikativ vazifasi)ni kengroq tahlil qilamiz.

O'zlashtirma so'roqning eng kichik ko'rinishi o'zlashtirma xabarning eng kichik ko'rinishdan so'roq vositasi yordamida hosil bo'ladi. So'roq vositasi qo'shimcha va so'z bo'lganda so'roq ikki qismdan, ohang bo'lganda bir qismdan iborat bo'ladi. Ikkinchi qism bir yoki ikki uzvli bo'lsa birinchi qism ikki va undan ortiq uzvdan tuziladi: Kelibdimi? Kelgan ekanmi? O'qituvchi, ekanmi? Kim kelibdi? Kim kelgan ekan? O'qituvchi ekan? Kim o'qituvchi ekan? Kelibdi? Kelgan ekan? va hokazo. Nutqiy amal talabiga ko'ra birinchi qism kengayib, murakkab sodda gap, bog'langan, bog'lovchisiz yoki ergashgan qo'shma gap hosil bo'ladi.

So'roq faqat shaklan emas, mazmunan ham qism va uzvlardan tarkib topgan bo'ladi. Birinchi qismda predikativlik o'z ifodasini topadi. Predikativlik tarkibidagi shaxs nutq (nutqiy amal)da uch xil vazifa bajaradi: so'zlovchi (I shaxs), tinglovchi (II shaxs) va o'zga (III shaxs). Grammatik zamon to'rt xil ko'rinishda zuhur bo'ladi: o'tgan, hozirgi, kelasi va umumzamon.

Obyektiv zamon lisoniy vosita bilan ifodalanadi yoki g'ayrilisoniy omil (vaziyat)dan anglashiladi. Son ma'nosining ham to'rt xil ko'rinishi bor: birlik, ikkilik, ko'plik, umumiylik. II va III shaxsda hurmat ma'nosiga ham muayyan munosabat namoyon bo'ladi. Bu shaxsning ijtimoiy roli va maqomiga bog'liq bo'ladi [bu haqda qarang: 23, 197 – 230]. Modallik xabar maylida bevosita kuzatganlik va bevosita kuzatmaganlik tarzida voqelanadi. O'zlashtirmalik ikkinchi ma'no asosida shakllanadi. Uning ifoda vositasi qo'shimcha va to'liqsiz fe'l. Bu vazifani qo'shimcha yoki to'liqsiz fe'l bitta o'zi yoxud to'liqsiz fe'l (ekan, emish) qo'shimcha (-ar, -gan va boshqalar) bilan birgalikda bajaradi: -(i)bdi,- gan ekan (emish),-ar ekan (emish) va boshqalar. Bu vositalar gapda kesimni shakllantiradi. Predikativlik to'liq ifodalanadi. Bu qism darak gapga o'xshash (boribdi, borgan ekan kabi). So'roq shakllanishi uchun boshqa vosita talab etiladi. Bunday vosita uchta: qo'shimcha, so'z, ohang. So'zlovchiga fikr (predikativlik) ning muayyan uzvi noma'lum bo'lganda mazkur vositalardan tegishlisini tanlab tinglovchiga murojaat qiladi. Fikrning noma'lum uzvi ko'pincha o'zga shaxsning nutqiy faoliyati bilan bog'liq bo'ladi. Shunga ko'ra o'zlashtirma so'roqning III shaxs shakli ko'proq qo'llanadi.

So'roqning nutqiy xususiyatini tahlil qilish uchun birgina so'roq gap bilan cheklanib bo'lmaydi. Negaki fikrning noma'lum uzvi javobdan oydinlashadi. Tinglovchining xabardorlik darajasiga qarab javob shaklan va botinan turli ko'rinishda namoyon bo'ladi. Ikkinchidan, so'roq gapning birinchi qismi tayanch xabar vazifasini bajarib, ikkinchi qismi oldin yoki keyinga ishora qilib bog'lovchi vazifasini bajaradi. Shunga ko'ra so'roq gap tayanch xabar, javob (darak gap bo'lsa) yangi xabar vazifasida keladi. Bunday holda kontekstual tahlil yetarli bo'lmaganidan matniy tahlilga murojaat qilinadi. Quyida kommunikativ maqsad kategoriyasi umumiy ma'nosining bir ko'rinishi bo'lgan o'zlashtirma so'roq shu nuqtayi nazardan tahlil qilinadi.

So'roq gap qo'shimcha bilan hosil bo'lganda so'roq birgina

shakldan eng qisqa javob birgina tasdiq yoki inkor soʻzdan iborat boʻlishi mumkin:

- Topishibdimi?
- Yoʻq. (T.Malik, Soʻnggi oʻq, 382)

Ushbumisoldasoʻroqgapbirginasoʻzdaniborat. Busoʻzfeʼlning oʻzagi va ikkita qoʻshimchadan tarkib topgan. Feʼl oʻzagi koʻp maʼnoli. Qaysi maʼnosi namoyon boʻlayotganligi mikromatnning oldingi qismidan ayon boʻladi. Birinchi qoʻshimcha ikki uzvli. Birinchi uzv (-ish) koʻplikni bildiradi. Ikkinchi uzv (-ibdi) koʻp maʼnoli. U xabar maylining oʻtgan zamon III shaxs shaklini hosil qiladi. Predikativlikni shakllantirib, tugallangan ohang bilan aytiladi. Alohida oʻzi qoʻllanganda xabarning oʻzlashtirib bayon qilinganligi anglashilardi. Soʻzlovchi oʻzga shaxslar feʼl oʻzagidan anglashilgan harakatni bajargan-bajarmaganligini bevosita kuzatolmagan, bu unga nomaʼlum. Uning niyati esa aynan shuni aniqlash boʻlganligidan ikkinchi qoʻshimcha (-mi) ni qoʻllaydi. Bu qoʻshimcha ikkita vazifa bajaradi. Avvalo fikrning tugallanmaganligini koʻrsatib keyinga havola qiladi va bogʻlovchi vazifasini bajaradi. Ikkinchidan soʻzlovchining kommunikativ maqsadini oʻzgartirib xabarni soʻroqqa aylantiradi. Natijada oʻzlashtirma soʻroq gap hosil boʻlib, axborotni davom ettirish zarurati tugʻiladi, yaʼni tinglovchidan javob berish talab etiladi. Misolimizda tinglovchi harakatning amalga oshmaganligidan xabardor, uni bevosita kuzatgan. Shuning uchun inkor soʻzdan foydalanadi. Soʻroqning ham, javobning ham oʻta ixcham boʻlishi bir jihatdan nutqiy amal vaziyati bilan bogʻliq. Qoʻshni xonada tinglovchining onasi ogʻir kasal yotibdi. Soʻzlovchi va tinglovchining lisoniy vosita bilan ifodalanmagani, oʻzga shaxs va uning sonini koʻrsatish uchun faqat qoʻshimcha qoʻllanganligi, nutqiy amal oʻrni, obyektiv zamon aniq emasligi va hokazo berilgan savol-javob bilan cheklanmay, mikromatnning boshqa qismlariga murojaat qilishni taqozo qiladi. Jumladan, tinglovchi – Yoʻlchiboy Siddiqov, soʻzlovchi – ikki koʻcha narida yashovchi hamshaharlari, “xitoy doʻxtur” deb nom chiqargan Murodilla,

o'zga shaxslar militsiya xodimi mayor Sanjar Solihov va kapitan Ramziddin Ramazonov, nutqiy amal o'rni tinglovchining uyi ekanligi mikromatnning oldingi qismidan ma'lum. Fe'lining o'zagi (top) qotillikni topishni bildiradi. So'zlovchi militsiya xodimlari tinglovchining otasi qotilini topganligini bilmoqchi bo'ladi. Obyektiv zamon – XX asrning birinchi yarmi, obyektiv makon esa – O'zbekiston.

Nutqiy amal talabi bilan savol va javob ham hajman, ham mazmunan kengayib, murakkablashuvi mumkin:

– Urushda bo'lgan ekanmi?

– Ha, partizanlar otryadida. (T. Malik, So'nggi o'q, 303) Ushbu nutqiy amaldan so'zlovchining maqsadi faqat harakatni emas, uning bitta belgisini ham aniqlash bo'lganidan so'roq gap hajman kengaygan. Javob ham shunga moslashgan. Tinglovchi o'zga shaxsning -gan ekan shakli orqali ifodalangan harakatni amalga oshirganligidan xabardor. Shuning uchun javobda tasdiq so'z (ha) ni qo'llaydi. So'roq gapda harakatning belgisini ifoda etuvchi so'z mazmunan ko'p uzvli tushuncha bo'lib, butunni anglatadi. Tinglovchi o'zga shaxs uning qaysi uzvini amalga oshirganligidan ham xabardor. Shunga ko'ra javobda shu uzvni anglatuvchi so'z birikmasini qo'llaydi. Shunda ham tejamkorlik namoyon bo'lgan. Jumladan, so'zlovchining kapitan Ramziddin Ramazonov, tinglovchining mayor Sanjar Solihov va o'zga shaxsning Rizayev ekanligi mikromatnning oldingi qismidan ma'lum bo'ladi.

Muloqot vaziyatiga ko'ra savol ham, javob ham birgina gapdan iborat bo'lmasligi mumkin:

– Bronxit ekanmi? – dedi Anvarga qarab. Anvar bir qo'lini baland ko'tarib eshik kesakidan ushlagancha goh Alimardonga, goh Muqaddamga qarab turar edi.

– Bolaligidan shunaqa, – dedi Anvar achinish to'la past ohangda. – Sal shamollasa o'pkasi qisadi. (O' Hoshimova, Bahor qaytmaydi, 135) Ushbu misoldagi axborotning birinchi qismida uchta gap bor. Nutqiy amal ishtirokchilari aniq. So'zlovchi – Muqaddam, tinglovchi – Anvar, o'zga – Alimardon. Birinchi gap

birgina ot kesimdan iborat, o'zlashtirma so'roqni bildiradi. U o'zlashtirma xabardan hosil bo'lgan. O'zlashtirma xabar vositasi to'liqsiz fe'l (ekan), so'roq vositasi qo'shimcha (-mi). So'zlovchiga o'zga (III) shaxsning qanday xastaligi ma'lum emas. Tinglovchi shundan xabardorligini bilish niyatida so'zlovchi unga bevosita murojaat qiladi. SHunga ko'ra ikkinchi gap yuzaga keladi. Uning kesimi nutq fe'lining bevosita kuzatganlik shaklida qo'llangan (dedi). Uchinchi gap asar (makromatn) muallifining fikri, bevosita xabardan iborat. Kesim -(a)r edi shakli bilan ifodalashgan. Bu gap nutqiy amal vaqtida tinglovchining jismoniy va ruhiy holatini ifoda etadi. Muloqotning ikkinchi qismi (javob) ham uchta gapdan tuzilgan. Gaplardagi fikrdan so'zlovchi bevosita xabardor. Shu bois uchala kesim bevosita kuzatganlikni anglatuvchi vositalar bilan ifodalangan. Faqat birinchi gap ko'chirma xabar, ikkinchi gap xabar manbai. Undagi fikr nohissiy emas, tinglovchining o'zga shaxs (bemor)ga mehri bilan yo'g'rilgan. Oxirgi gap – birinchi gapning davomi. Birinchi gapda zamon ma'nosi ajratib ko'rsatilgan. Oxirgi gapda sabab-natija munosabati aks etgan. Mikromatnning o'zlashtirma so'roq va uning javobi haqida ma'lumot berilgan qismi hajman katta bo'lsada, tejankorlik mavjud. Jumladan, so'zlovchi hamshira, u tinglovchining sevgilisi, o'zga shaxs tinglovchining do'sti, suhbat o'rni bemorning uyi ekanligi tejalgan. Bular mikromatnning boshqa qismida o'z ifodasini topgan.

Nutqiy maqsadu vazifaga ko'ra o'zlashtirma so'roq va uning javobidan iborat muloqotda faqat gap emas, abzas soni ham ko'p bo'lishi mumkin:

Bir oz gap-so'z, hol-ahvol so'rashishdan keyin Qodir podachi:

– Polvon, uyingizda bir it paydo bo'ptimi? – dedi. – Mana, nabiramiz qo'ymasdan meni olib keldi. Bilasiz, men ham itbozman. Bungayam yuqqan chamasi. Shuni ko'ramiz deb keldik.

Otam menga qarab qo'ydilar. Otamning yuzi tund edi. Yuragim gupillab urib ketdi.

Ha, dedilar otam bir oz sukut saqlab. Cho'lda bir tanish uchrab

qolgandi. Ovcharkadan qochirgan bir iti bor ekan. Shuning bolasini beruvdi. (SH. Xolmirzayev, Yur, tog'larga ketamiz! 210) Ushbu misol to'rt abzas va o'n to'rtta gapdan tarkib topgan. Birinchi qism (savol)da o'nta, ikkinchi qism (javob)da beshta gap bor. Gaplarning barchasi savol yoki javob bilan turli darajada bog'liq. O'zlashtirma so'roqni ikkinchi gapning kesimi vazifasida kelgan shakl (paydo bo'ptimi) bildiradi. So'roq alohida qo'shimcha (-mi) yordamida o'zlashtirma xabardan hosil bo'lgan. Bunday holda, ya'ni xabarning ixcham shakli (paydo bo'pti)da bevosita kuzatmaganlikning ikki ko'rinishiga munosabat yuzaga chiqadi: 1) harakatni bevosita kuzatmay, biror vosita yordamida keyin bilganlik [bu haqda qarang: 21, 23 – 24]; 2) birovdan eshitganlik. Ushbu mikromatnda keyingi gaplar yordamida ikkinchi ma'no namoyon bo'lgan. Birinchi gapning kesimi nutq fe'lidan ifodalangan (dedi). Bu gap o'zlashtirma so'roqqa nisbatan xabar manbai vazifasini bajaradi. So'zlovchi (Qodir podachi) o'zi yoki nabirasi boshqa nutqiy amalda eshitgan xabarni keyingi nutqiy amalda tinglovchidan so'raydi. Boshqa gaplar bevosita xabarni ifodalaydi.

Uchinchi abzasdagi gaplar tinglovchi (polvon)ning nutqiy amalda o'zga (III) shaxs sifatida ishtirok etayotgan o'g'lining bo'layotgan voqeaga munosa-batini ko'rsatish uchun xizmat qiladi.

O'zlashtirma so'roqqa javob birgina tasdiq so'z (ha)dan iborat. U ha paydo bo'ldi mazmunidagi gapning qisqargan shakli. Javob tariqasida shuning o'zi yetarli. Boshqa gaplar qo'shimcha ma'lumot bo'lib, shuni izohlash, oydin-lashtirish uchun qo'llangan. Barchasi bevosita kuzatganlikni ifodalovchi xabar.

Mikromatnning tahlil etilayotgan qismi hajman katta bo'lsa-da tinglovchi (polvon) va o'zga shaxslar (nabira, o'g'il)ning aynan kim ekanligi, suhbat o'rni aniq emas. Bular mikromatnning oldingi qismidan ma'lum bo'lganidan o'quvchida e'tiroz tug'ilmaydi. Tadqiqotchi ham tejamkorlikni ma'qullaydi. Ammo bitta sodda gapning ikki abzasga bo'lib berilgan gapidan tinish

ishoralarini isloh etish zarurligi anglashiladi. Bunday holda bir abzas qisqarib mazmunga hech qanday putur etmaydi: Bir oz gap-so'z, hol-ahvol so'rashishdan keyin Qodir podachi polvon uyingizda bir it paydo bo'ptimi dedi.

His-tuyg'u ifodalanishi ham mikromatn tarkibidagi o'zlashtirma so'roqqa daxldor qismning hajman kengayishiga olib kelishi mumkin:

– erta ko'pkaridan keyin uyingizga kelar ekanlar...

– Ablah !.. He, nomard bola. Shoshma, xo'sh, faqat to'y uchun kelibdimi?

– Ha, endi avvalambor... (SH. Xolmirzayev, Ot yili, 352). Ushbu misol tinglovchi Bo'ri Qora ismli amaldorning uyida so'zlovchi Olchinboy bilan bo'lib o'tgan suhbatdan bir parcha. O'zga shaxs – Bo'ri Qoraning jo'rasi Akmal ismli katta amaldor. Suhbat katta amaldorning Nazir ismli qassobning to'yiga kelganligi haqida. Bo'ri Qoraning qassob bilan orasiga sovuqchilik tushgan. Shu sababli to'yga bormagan. Bular makromatnning oldingi qismidan ma'lum bo'lganligidan bu qismda tejalgan. So'zlovchi tinglovchi (Bo'ri Qora)ning shogirdi bo'lgani uchun uni xotirjam qilish maqsadida o'zga shaxs (Akmal)dan eshitgan xabarni o'zlashtirib unga etkazadi. Tinglovchi baribir o'zini tuta olmaydi. O'zga shaxsga bo'lgan salbiy munosabatini ifodalash uchun bir nechta lug'aviy, fonetik va grammatik vosita qo'llaydi. Natijada o'zlashtirma so'roq ifodasi kengayadi. Aks holda o'zlashtirma so'roq ixcham shaklga ega bo'lar edi: Faqat to'y uchun kelibdimi?

Javob ixcham, birgina tasdiq so'zdan iborat. Ammo vaziyatni yanada keskinlashtirmaslik uchun aniqrog'i ustozining badtar jahli chiqmasin deb o'zga shaxs (katta amaldor) kelganligining boshqa sabablarini ochiq aytmaydi. Muallif matnning keyingi qismiga qoldiradi. Bunga tejamkorlik imkon beradi.

Tinglovchining o'zga shaxsga salbiy munosabati darajasi yanada yuqori bo'lishi mumkin. Bunday holda o'zga shaxsning ijtimoiy mavqei so'zlov-chinikidan past bo'lishi mumkin [bu haqda qarang: 23, 199 – 201]. Quyidagi misolda shunday:

– O‘zim ko‘rmadim-u, Akmal akayam kelibdilar,– deb ilova qildi Nosir.

– Bo‘ri Qora uchib tushib:

– Akmal-a?- dedi. Xato eshitmadingmi o‘zi? Akmal To‘polonga keladi-yu, menikiga kirmay, qassobning kushxonasiga borar ekanmi? Shuyam gap bo‘ldi-yu! Qassobning uyiga uning itiyam adashib kirgani yo‘q. Nazar qassob qayoqdayu Akmal qayoqda!... (SH.Xolmirzayev, Ot yili, 387) Ushbu misol mazkur makromatn tarkibidagi boshqa bir mikromatn (384 – 390-betlar)dan olindi. U militsiya boshlig‘i Bo‘ri Qora bilan ukasi Nosir o‘rtasida bo‘lgan suhbatning bir qismi. So‘zlovchi avval Nosir, so‘ngra akasi. O‘zga shaxs ikkita:biri – Bo‘ri Qoraning bolalikdan do‘sti rektor Akmal aka, ikkinchisi – Qassob Nazar ota. Suhbatda militsiya boshlig‘ining qassobga salbiy munosabati yuqori darajada ifoda etilgan. Buning sababi ham aytilganidan savol-javob hajman ancha kengaygan. Savol ixcham, unga Nosirning o‘zgidan eshitgan xabari asos bo‘lgan. Undagi so‘roq vositasi (-a) so‘zlovchining ajablanishini ham bildiradi. So‘roqning to‘liq shakli: Nahotki rektor qassobning to‘yiga kelgan bo‘lsa? Tejamkorlik o‘quvchining diqqatini savolga qaratib salbiy munosabatning ta‘sir kuchini oshiradi. Keyingi gaplar salbiy munosabat darajasining yanada oshishiga xizmat qiladi. Misoldan keyingi gap (Umarboy, yuring) mikromatn tugamaganligidan suhbat Bo‘ri Qora bilan ikkinchi o‘zga shaxs o‘rtasida davom etishini bildiradi. Misoldagi birinchi abzas oxiridagi gap kesimi (ilova qildi) esa ushbu savol-javob mikromatnning boshlanishi emasligini ko‘rsatadi. Bundan tashqari suhbat o‘rni (Bo‘ri Qora uyi) ekanligi aytilmay tejalganligi ham mikromatnning oldingi qismiga havola qiladi. Voqea sodir bo‘lgan obyektiv zamon oldingi mikromatnlardagidek lisoniy vosita bilan ifodalanmagan. Makromatn muallifi uni o‘quvchi idrokiga qoldiradi va hokazo.

Mikromatnning o‘zlashtirma so‘roq va uning javobi ifodalangan qismi suhbat mavzusi, undan ko‘zlangan maqsad, nutqiy amal a‘zolarining fe‘l-atvori, yoshi va boshqa omillarga

ko'ra o'nlab gap, bir necha abzas, bir-ikki sahifadan iborat bo'lishi mumkin. Jumladan, quyidagi misol shunday:

– Kimdan eshitdingiz, axir? – deb so'radi Sanoqul.

– Bundaychangi gaplardi Niso enangdan eshitaman-da, – dedi u yana beixtiyor kemshik tishlarini ko'rsatib iljayarkan. – Niso enangga Umri aytibdi. Umriga eri Mirzo Badal aytipti. Mirzo Badalga qo'shnisi Suvonqul guppi aytipti.

– Oq bo'kanlarni Suvonqul amaki ko'ribdimi? – deb so'radi Sanoqul jonsarak bo'lib.

– Unga Zokir bulbul aytibdi.

– Zokir bulbul toqqa chiqqan ekanmi?

– Zokir bulbulning qorategenlik xotini sigirini podaga qo'shgani olib chiqibdi. Qarasa, poda joyda xotin-xalajlar to'planishib, chuvvos solishib, bir birlariga gal bermay, sen gapirmaysan, men gapiraman, deb o'ralashib yotishganmish... (SH.Bo'tayev, Qo'rg'onlangan oy, 28 – 29) Ushbu misol qariyb ikki sahifa, o'n to'qqiz abzasdan qisqartirib olindi. So'zlovchi dastlab Ulg'ay kampir, tinglovchi Ubaydilla chavandozning o'g'li Sanoqul. So'ngra ularning nutqiy vazifasi almashinib turadi. Suhbat o'rni – yo'l yoqasi. Suhbat mavzusi – siyg'oqlarning Rangontog'ga qaytib kelishi. Ulg'ay kampir siyg'oqlarning Rangontog'ga qaytib kelganini aytib, yo'ldan o'tib ketayotgan Sanoquldan suyunchi so'raydi. Sanoqulni xushxabarning manbai qiziqtiradi. Misoldagi ettita xabar manбайдan oltitasi aniq bitta shaxs, bittasi ko'pchilik (xotin-xalaj). So'zlovchi ulardan eshitgan xabarning bittasini tinglovchiga aynan etkazadi. Ya'ni ko'chirma xabardan foydalanib bevosita kuzatganlikni ifodalash uchun xoslangan shakllarni qo'llaydi. Oltita xabarni so'zlovchi o'zlashtirib bayon qiladi. Bunda o'zlashtirmalikni ifodalaydigan shakllarning ikkitasi (-ibdi va -ganmish)ni ishlatadi. Suhbat asnosida so'zlovchi tinglovchiga ikki marta so'roq bilan murojaat qiladi. Avvalo bevosita so'roq, ya'ni ko'chirma so'roqdan foydalanadi. Buning uchun lug'aviy vosita (so'roq ol-moshi) va bevosita kuzatganlikni ifodalovchi -di shaklini qo'llaydi. Ikkinchi marta o'zlashtirma so'roqdan

foydalanadi. So'roqni ifodalashda qo'shimcha (-mi) va lug'aviy vosita (so'ramoq fe'lini) ishlatadi. O'zlashtirmalik vositasi -ibdi shakli. Ikkalasida ham so'roq manbai alohida gap qilib berilgan. Misol oxiridagi gapdan keyin qo'yilgan ko'p nutqa mikromatn tugamaganligidan dalolat beradi. Undagi birinchi gap mazmunan oldinga ishora qilganligidan mikromatnning boshlanishi emasligi anglashiladi.

Ko'rinadiki, ayrim gap mazmunan bevosita yoki o'zlashtirma xabar ifodalasa ayrimi bevosita yoki o'zlashtirma so'roq anglatadi. Bunday holda uning makropropozitsiyasi umumlashtirish qoidasiga asosan tiklanadi [qarang: 41]. Nutq turi nuqtayi nazaridan olib qaralsa, misol so'zlovchining o'z nutqi va o'zga nutq (ko'chirma, o'zlashtirma xabar va so'roq)dan tuzilgan. Binobarin, mazkur misol badiiy matndan olingan aralash nutq parchasi ekan.

Xulosa. Qisqacha tahlildan ma'lum bo'ladiki, qo'shimcha bilan hosil bo'luvchi o'zlashtirma so'roqda so'zlovchi kesimdan anglashilgan o'zlashtirma xabarning amalga oshgan-oshmaganligini bilmaydi. Uning kommunikativ maqsadi shuni aniqlashdan iborat.

Foydalanilgan adabiyot

1. Zikrillayev G'. Ruh va til. -Toshkent: Fan, 2018. – 464 b.
2. Abdullayev A.B. Hozirgi o'zbek adabiy tilida o'zga gaplarning ifoda formalari. – Toshkent, 1983. – 112 b.
3. Abdullayev A.B. Konstruktsii s chujoy rech'yu kak samostoyatel'naya kategoriya uzbekskogo sintaksisa. – Tashkent: Fan, 1985. – 88 s.
4. Abdurahmonov G'. Qo'shma gap sintaksisi asoslari. – Toshkent: O'zFA nashriyoti, 1958. – 325 b.
5. Abdurahmonov G'. O'zbek tili grammatikasi. Sintaksis. Toshkent: O'qituvchi, 1996. – 248 b.
6. Abuzalova M. Substantsial morfologiya, valentlik va gap qurilishi talqini. Toshkent: Fan, 2009. – 140 b.

Shuhrat Ko'chimov,
Toshkent davlat yuridik universiteti professori,
filologiya fanlari doktori, professor
Go'zaloy Mamedova,
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti
akademik litseyi oliy toifali
ona tili va adabiyot o'qituvchisi

O'ZBEK DIPLOMATIK TILI VA UNING O'ZIGA XOS PRAGMALINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Insoniyat rivojida va, ayniqsa, har bir davlatning tashqi aloqalarida diplomatiya muhim o'rin tutadi. Diplomatik xizmat o'z oldiga qo'ygan vazifani bajarar ekan, turli tashqi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy tadbirlarni amalga oshirishda diplomatik tilning muayyan an'ana va qoidalariga rioya qiladi. Diplomat nutqi diplomatik tilning lingvistik va ekstralingvistik xususiyatlarini o'zida to'laroq ifodalasa, ba'zi belgilarini umuman aks ettirmasligi ham mumkin. Umumadabiy tilning aynan shunday, ya'ni diplomatik tilda ifodalanadigan ekstralingvistik va lingvistik elementlari "diplomatik til" deb yuritiladi.

Xalqaro munosabatlar diplomatik til vositasida amalga oshiriladi. Diplomatik til - diplomatiyaning asosiy quroli hisoblanadi. Diplomatik til muayyan davlat vakolatxonasining u yoki bu tashqi siyosiy aksiyasi (tadbir) shakli hisoblanadi [Қосимов, 1998: 93].

Diplomatiya qoidalari "xalqaro ehtirom" deb ataluvchi prinsipga asoslanadi. Mazkur tamoyil davlat ramzi bo'lgan har qanday predmetga hurmat bilan munosabatda bo'lishni bildiradi. Aynan ana shu o'zaro hurmat prinsipiga rioya qilgan holda diplomatik til ham shakllanadi.

Diplomatik munosabatlar, yozma shakldagi diplomatik aksiyalar, shaxsiy yoki boshqa ko'rinishdagi aloqalar diplomatik protokol va diplomatik til qoidalariga rioya qilgan holda amalga oshiriladi.

Bizning nazarimizda, diplomatik til tushunchasi quyidagi ikki ma'noni ifodalaydi:

1. Diplomatik til - umumadabiy tilning mamlakat tashqi faoliyatida qo'llanadigan uzviy tarkibiy qismi;
2. Diplomatiya faoliyatida ishlatiladigan barcha til birliklarining majmui;

Demak, diplomatik til – bu xalqaro munosabatlar sohasida faoliyat yuritiladigan til hisoblanadi. U diplomatik tashriflar jarayonida qo'llanadi, yana ham aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, u quyidagi diplomatik jarayonlarda qo'llanadi:

1. Ikki tomonlama xalqaro muzokaralar jarayonida;
2. Ko'p tomonlama xalqaro muzokaralar jarayonida;
3. Diplomatik qabullar jarayonida;
4. Diplomatik yozishmalar jarayonida;
5. Rasmiy delegatsiyani qabul qilish va kuzatish jarayonida;
6. Diplomatik suhbatlar jarayonida;
7. Xalqaro konferensiya va yig'ilishlar jarayonida;
8. Xalqaro shartnoma va bitimlarni yozish va uni imzolash jarayonida;
9. Diplomatik matbuot anjumani jarayonida.

Sanab o'tilgan tadbirlar ro'yxatini shu bilan tugatib bo'lmaydi. Chunki xalqaro munosabatlardagi har qanday tashqi siyosiy faoliyat, tadbir diplomatik til qoidalariga rioya qilmay turib amalga oshirilmaydi.

Bu jarayonlarda diplomatik til me'yorlarini bilish va uni ustalik bilan qo'llash diplomatik malaka va diplomatik mahorat namunasi hisoblanadi.

Diplomatik til BMT, YUNESKO, XTM, BST, MAGATE kabi xalqaro tashkilotlarda qabul qilingan til me'yorlarining asosi hisoblanadi. Til shuning uchun xalqaro xarakterdagi, chunki uning asosiy qoidalarini barcha tan olgan va barcha mamlakatlarda bu qoidalar deyarli bir xil amal qilinadi.

Diplomatik xodim istalgan boshqa davlatga tashrif buyurar ekan, deyarli bir xil diplomatik til qoidalariga va uning protokoliga

amal qiladi. Albatta, har bir mamlakat mazkur qoidalarga milliy yoki diniy urf odatlari va an'analari ijtimoiy tuzilishidan kelib chiqqan holda, ayrim qo'shimchalar kiritishi mumkin. Masalan, Hindistonda mamlakatga kelgan e'tiborli mehmonga gulchambar kiydirish odati mavjud. Ispaniya, Bolgariya, Italiyada esa hurmatli mehmonga non-tuz va milliy vino to'ldirilgan qadah tutiladi.

Bizning o'zbek milliy odatimizga ko'ra o'ng qo'lini ko'ksiga qo'yib shirin muomala asosida so'z yuritiladi. Bunday zaruriy harakatlar milliy an'anamizni yanada mustahkamligi va so'z borasida shirinsuxan ekanligini yana bir bor namoyon etadi.

Xalqaro munosabatlarda til normalariga rioya qilish majburiyat hisoblanadi. Chunki ulardan chekinish, ularni buzish boshqa davlatning obro'si, qadr-qimmatiga putur yetkazishi, rahbarlari va rasmiy vakillarini obro'sizlantirishi, natijada o'zaro munosabatlardagi murakkabliklarni keltirib chiqarishi mumkin.

Hozirgi paytdagi til qoida va me'yorlari diplomatik amaliyotning barcha shakllariga o'z munosabatlarini bildiradi. Biroq shuni nazarda tutish lozimki, u yoki bu mamlakat bilan siyosiy munosabatlar ahvoliga ko'ra diplomatik til qoidalari amalda qo'llanar ekan, uning asoslari o'zgarmagan holda ayrim o'zgarishlar sodir bo'ladi. Tantanavorlik darajasi, marosim miqyoslari rasmiy kishilarning ishtiroki bilan belgilanadi.

Shunday qilib, diplomatik til - mamlakatlar o'rtasidagi siyosiy munosabatlarni aks ettiradi va tashqi siyosiy maqsad va vazifalarga bo'ysunadi. Garchi uning asosiy talablariga barcha davlatlar tomonidan rioya qilinsa, ya'ni diplomatik til xalqaro munosabatlarda davlatlar tashqi siyosiy maqsadlardan qat'i nazar bir xil qo'llanmaydi.

Diplomatik til, jozibali nutq, zukkolarcha aytilgan fikrlar diplomatiyaning siyosiy quroli hisoblanadi. Uning qo'llanish natijalari mamlakatlararo munosabatlar va ularning rasmiy vakillari munosabatlariga ta'sir qilishi mumkin, shuning uchun diplomatik til normalarini bilish va ularni amaliy faoliyatini to'g'ri qo'llash lozim.

Diplomatik til ko'p jihatdan algoritm tiliga o'xshaydi; ma'lumki, bunday til ramzlar, sintaktik qoida va semantik ta'riflar yig'indisidan iborat bo'ladi. Algoritm tili dasturlashtirishning asosi sanalsa, diplomatik til diplomatik munosabatlarni dasturlashtirish asosi sanaladi. Diplomatini qo'llash sohasining kengayishi (iqtisodiy, madaniy, ijtimoiy va boshqa sohalarda) diplomatik tilning ko'p maqsadli texnik vositalari to'plamini vujudga keltirdi.

Nima bo'lishidan qat'i nazar, diplomatik til aql va mulohazakorlikni talab qiladi. Shu bois asrlar davomida shartli iboralarning butun bir majmui yaratildi, ular qanchalar bosiq va sermulohaza jumlar bo'lmasin, mazmun jihatdan ma'lum qimmatga va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan. Masalan, diplomat o'zining mamlakati biror xalqaro ziddiyatga "befarq qaray olmasligi" haqida so'zlar ekan, mazkur holatda uning hukumati, albatta, unga aralashishini aniq ko'zda tutadi. Agar bayonot yoki muzokaralar paytida "mening davlatim hukumati o'z xavotirini bildiradi" yoki "chuqur xavotirda" singari jummalarni ishlatasa, gap diplomat vakillik qilayotgan davlat hukumati o'zining qat'iy nuqtai nazariga ega bo'lgan muammo ustida ketayotganligi ravshan bo'ladi. Shu kabi ehtiyotkor iboralar xorijiy davlatga to'g'ridan-to'g'ri po'pisa qilmasdan, jiddiy ogohlantirish bildirish imkonini beradi.

Agar bu natija bermasa, diplomat odob va murosa ohangini saqlagan holda yanada kuchliroq iboralarni qo'llashi mumkin. Agar u "u holda mening hukumatim o'zining nuqtai nazarini qayta ko'rib chiqishga majbur bo'ladi" desa, davlatlar o'rtasidagi do'stlik istalgan paytda dushmanlikka aylanib ketishi mumkin ekanligiga ishora qiladi. Mabodo u "mening davlatim o'zining huquqini saqlab qolishi zarur deb hisoblaydi" desa, aslida uning mamlakati "yo'l qo'ymasligi"ni nazarda tutgan bo'ladi. "U holda hukumatim o'zining shaxsiy manfaatlarini himoya qilishga majbur bo'ladi", "o'zi istagan chorani qo'llash huquqidan foydalanadi" iborasi do'stona munosabatlar uzilishini anglatadi.

Bordi-yu u chet davlatga ba'zi harakatlari “do'stlikka zid xatti-harakatlar” deb topilishi mumkinligini ma'lum qilsa, buni urush xavfidan ogohlantirish deb tushunish lozim bo'ladi. Agar u “oqibatlarini uchun javobgarlikni zimmasiga ola olmasligi”ni bildirsa, mazkur noxush vaziyat urushga olib kelishi mumkinligini anglatadi. Agar u, hatto o'ta muloyim ohangda “25 kun kech soat oltigacha javob berish”ni talab qilsa, uning so'zlarini ultimatum (chaqiriq) deb hisoblash kerak.

Diplomatlar muloqotlarining bunday shartli shaklining ahamiyati shundaki, u tinch vaziyatni saqlaydi va noto'g'ri talqin qilish mumkin bo'lmagan eng keskin ogohlantirishlarni bildirish imkoniyatini beradi. Uning kamchiligi shundaki, bu singari birgina jumlaning tasodifan yoki ehtiyotsizlik bilan aytib yuborilishi biror arzimagan masalani hal qilishda xavfli burilish yasashi mumkin. Shu bois barcha muhim bahslarda ushbu shartli iboralarining har bir so'zi batafsil muhokama qilinadi.

Har bir diplomatning lug'at boyligida qadimgi iboralar va tasviriy ifodalar to'plami mavjud bo'lgan, ular ko'pincha uning nuqtai nazarini qo'llab-quvvatlashda muhim dalil vazifasini o'tagan. Bu singari birikma va ifodalar bir ibora yoki jumla bilan mulohazalarining to'g'ri va adolatli ekanligini ishonchli tarzda isbotlash imkonini berar edi. Odatda, bunday iboralar lotin tilida va barcha diplomatlar uchun tushunarli qilib aytilgan. Masalan, “kazus belli” degan jumla qo'llansa, urush uchun zarur bo'lgan bahona anglashilgan. Ko'plab xalqaro konferensiya va kongresslar uchun “konsensus” ya'ni umumiy kelishuv talab qilinadi. O'tkir xalqaro ixtilof yuz berganda yoki xalqaro vaziyat keskinlashganda, odatda “kun prodest”, ya'ni “kimga foyda?” deb so'raladi. Sezar zamonidan beri “divide et imperia”, “bo'lib tashla va hukmronlik qil” tamoyili mavjud bo'lib, zamonaviy diplomatiyada keng qo'llangan. Quyidagi mashhur hikmat Sezarga tegishli “Rubikon proydin”, ya'ni “qur'a tashlangan va orqaga qaytish yo'q” iborasi keskin chora ko'rish lozim bo'lgan vaziyatlarda ishlatiladi [Umozurik, 1985: p-33].

Diplomatik til doimo taraqqiyotda, davr o'tishi bilan tobora uning ahamiyati ortib bormoqda. Bu til vazifalarining ortishi va faoliyat sohaslarining kengayishi bilan boyib boradi. BMTning vujudga kelishi, mustamlakachilikning yemirilishi, diplomatiyaning iqtisodiy, madaniy va h.k. turlarining paydo bo'lishi tufayli diplomatik tilning terminologiyasi, diplomatik ibora va jumalari mukammallashib bormoqda. "Suveren tenglik", "suveren huquqlar", "chegaralar mustahkamligi", "hududiy yaxlitlik", "insonparvarlik intervensiyasi", "atom diplomatiyasi" singari iboralar diplomatiya asoslari bo'lib qoldi. Maxsus tayyorgarlik va ma'lumotga ega bo'lmasdan turib, ayniqsa, zamonaviy diplomatik til sohasida zarur bilimlarni, maxsus terminlarni egallamasdan diplomatik vazifalarni hal qilishda muvaffaqiyatga erishish mushkul.

Xulosa tariqasida shuni keltirish joizki, jamiyatda diplomatik soha va faoliyatning vujudga kelishi davridan boshlab diplomatiyada tilni qo'llash jarayoni dolzarb masala sifatida ko'rilgan. Asrlar osha halqlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarda bevosita til bilan bog'liq muammolar yuzaga kelgan. Shu bilan birgalikda, halqaro munosabatlarning kengayishi o'z-o'zidan dunyo tillarining rivojlanishiga ulkan ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Ushbu jarayonlar natijasi o'laroq, millatlar o'rtasida, tilga bo'lgan huquqni inson huquqlari sifatida talqin etish tushunchasi paydo bo'ldi. Shu jihatdan 1996-yilda Xalqaro PEN klubi (turli adabiy janrlarda ijod qiluvchi professional yozuvchilar, shoirlar va jurnalistlarni birlashtirgan inson huquqlari bo'yicha xalqaro nodavlat tashkilot) va bir qancha nohukumat tashkilotlari tomonidan "Til huquqlarining umumjahon deklaratsiyasi" (Barselona deklaratsiyasi sifatida ham tanilgan) til huquqlarini, ayniqsa, xavf ostida qolgan tillarni qo'llab-quvvatlash maqsadida imzolangan hujjat alohida o'rin tutadi. Shu o'rinda, diplomatik jarayonda tildan samarali foydalanishning bir necha usullari keng jamoatchilik fikri tomonidan ishlab chiqildi. Shu jihatdan olib qarasak, xalqaro munosabatlarda tilni qo'llash masalalarini

o'rganish borasida bir necha samarali ko'rinishlarni aytish mumkin:

-birinchidan, diplomatiyada tilni qo'llash borasidagi izlanishlar, avvalo diplomatik jabhaning muhim vazifalarini anglab yetishga yordam beradi.

-ikkinchidan, diplomatik tilning turli jihatlariga qiziqish orqali xalqaro miqyosdagi davlat arboblarning siyosiy faoliyatidagi muvaffaqiyatlarini yaqindan o'rganish va tahlil qilish imkoniyati yaratadi.

-uchinchidan, diplomatiya va tilning chambarchas bog'liqligi, ushbu faoliyatda tilning yuksak qirralarini namoyon qiladi. Shu o'rinda bir arab jumlarini keltirib o'tish muhimdir: "Men va dushmanim o'rtasidagi munosabatning yomonlashuvida qil bo'lishiga ham yo'l qo'ymayman, agar u yumshasa, men yaqinlashaman, va u yaqinlashsa men yumshayman". O'z-o'zidan malumki, ushbu fikrlar diplomatik tilning xushmuomalalik jihatiga bevosita bog'liqdir.

-to'rtinchidan, shuni aytish mumkinki, tarixda davlatlar o'rtasidagi aloqalarda o'zaro imkoniyatlar borasida bir qancha muammolar mavjud bo'lgan. Biroq, zamonaviy davrda ommaviy axborot vositalari va shu kabi qulayliklarning yaratilishi ham diplomatik faoliyatda tilning ahamiyatini pasaytirmadi.

-beshinchidan, diplomatik faoliyatning asosiy xususiyatlari bo'lgan o'zaro xalqaro aloqa o'rnatish, muzokaralar olib borish, shartnomalarni shakllantirish, bahs, yaratuvchanlik, muvaffaqiyatga erishish, bilimni namoyon qilish - bularning barchasi o'z-o'zidan tilga bog'liqdir. Shu narsa aniqki, xalqaro munosabatlarda demokratizatsiyalashuvning tobora o'sishi ko'p jihatdan diplomatik sohada qo'llaniluvchi tillar sonining ortishiga olib keladi.

Umuman olganda, diplomatik til xalqaro munosabatlar san'atidir. Diplomatiyada tildan unumli va o'rinli foydalanish davlat va jamiyat rivojida juda muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Қосимов А.М. Дипломатик ва консуллик хизмати. Т., 1998. 93-95 б.
2. Umozurik U. Unequal in Yes of Love // Africa Nov. 1985. March, p-33.

Sarvara Akobirova,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Xorijiy tillar kafedrası v.b. professori,
filologiya fanlari nomzodi

JAMIYAT TARAQQIYOTINING HOZIRGI BOSQICHIDA XORIJIY TIL TA'LIMI VA UNING ISTIQBOLLARI

Jahon miqyosida globalizatsiya va integratsiya jarayonlari ro'y bermoqda. Bu esa o'z navbatida barcha sohalarga ijobiy ta'sir ko'rsatib, ularni har tomonlama rivojlantirishga imkon yaratadi. Bu jarayonda xorijiy tillarning ahamiyati tobora yuqori kasb etadi. Ular til o'rganuvchilarga nafaqat tilni bilish va o'rganilayotgan tilda fonetik, leksik va grammatik jihatdan to'g'ri muloqot qilishni taqozo etibgina qolmay, balki tili o'rganilayotgan mamlakat xalqining urf-odatları, an'ana-yu marosimlari, geografıyasi, tashqi va ichki siyosati, tarixi kabi sohalarni ham o'rgatish vazifalarini ham qamrab oladi. Yana muhim ta'lim obyektlaridan biri xorijiy til vositasi bilan muloqot qiluvchi(til sohibi)ning individual xususiyatlari va hayotiy kechinmalarini hisobga olgan holda madaniyatlararo muloqot qilishga tayyorlashdir.

Xorijiy tilni bilishning ahamiyatini bunday tobora oshib borishi, uning funksiyalarini kengayishi zamirida so'nggi paytlarda chet tillar o'qitish metodikasida yangi paydo bo'lgan nazariyalar, ta'limotlar, jahon miqyosida olib borilgan ilmiy-tadqiqot natijalari kabi ilmiy-metodik omillar yotadi. Jahon miqyosida ro'y berayotgan globallashuv va integratsiya jarayonlarida xorijiy tillar ahamiyatining tobora ortib borishi va ularda xorijiy tilning muhim vosita sifatida qaralishi lingvodidaktika va chet tillar o'qitish metodikasini tubdan qayta ko'rish va isloh qilishni taqozo etadi.

Ta'lim shunday jarayonki, u uzluksiz yangilanish va islohotlarni talab etadi. Mustaqilligimizning ilk kunlaridanoq hukumatimiz tomonidan barcha sohalarda bo'lgani kabi ta'lim sohasini tubdan isloh qilishga ham alohida e'tibor qaratildi.

Hozirgi kunda oliy ta'lim muassasalarida ta'lim mazmuni, o'qitish uslubi tubdan o'zgardi.

Bu o'z navbatida xorijiy tillarni o'rganishni yanada takomillashtirish sari tashlangan ilk qadamlardan edi. Mamlakatimizda xorijiy tillarni o'qitish va o'rganishga jiddiy e'tibor berilmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, Vazirlar Mahkamasining hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining xorijiy tillarni o'qitish va o'rganishni yanada takomillashtirish haqidagi qarorlari fikrimiz dalilidir.

Bugungi kunda xorijiy tilni bilish o'ta muhim ahamiyat kasb etganligi bois chet tili o'qitish tizimini ham isloh etish, dars jarayonlarida zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitishning ilg'or interfaol usullarini qo'llash ta'lim tizimidagi dolzarb masalalardan biriga aylandi. Shuningdek mustaqil Respublikamizning jahon hamjamiyatida tutgan o'rni tobora o'sib, xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy aloqalar keng quloch yozayotganligi bizning kelajagimiz bo'lgan yosh avloddan chet tilini mukammal bilish zaruriyatini tobora oshirmoqda.

2012-yil 10-dekabrda O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.Karimovning "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1875-sonli, 2017-yil 20-apreldagi O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari tug'risida"gi PQ-2909 sonli hamda 2019-yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy talim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli qarorlarda chet tili ta'limini rivojlantirish, o'sib kelayotgan yosh avlodni zamon talablariga mos yetuk mutaxassis etib tayyorlash kabi ezgu maqsadlarga yo'naltirilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etdi.

Mazkur Qarorlarning ahamiyatli jihati shundaki, unda ta'lim tizimining barcha bochqichlarida chet tillarni uzluksiz o'rganishni tashkil qilish, shuningdek, o'qituvchilar malakasini oshirish hamda zamonaviy o'quv-uslubiy manbalar bilan ta'minlashni yanada takomillashtirish, zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda

o'qitishning ilg'or uslublarini joriy etish, o'sib kelayotgan yosh avlodning chet tillarga bo'lgan qiziqishini yanada oshirish va o'z navbatida chet tillarda erkin so'zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish, shu bilan bir qatorda ularning jahon sivilizatsiyasi yutuqlari hamda dunyo axborot resurslaridan keng ko'lamda foydalanishlari, xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirishlari uchun sharoit va imkoniyatlar yaratish ko'zda tutildi.

Ushbu Qarorlar tegishli davlat organlari, shu jumladan, barcha ta'lim muassalari va chet tili o'qituvchilari zimmasiga yosh avlodni mustaqil davlatimizning dunyo hamjamiyatidagi nufuzini yanada oshiruvchi yuksak salohiyat va bilim egalari qilib tarbiyalashdek ulkan vazifalar yukladi.

Mamlakatimizda kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilishning huquqiy asoslari yaratildi, maqsad va vazifalari aniqlandi, bu sohada muammolar, ularni hal etishning yo'llari, bosqichlari hamda islohotlarni amalga oshirishning ustuvor yo'nalishlari belgilab berildi. Bu islohotlar aynan kadrlar tayyorlash sifatini oshirishga qaratilgan bo'lib, uni amalga oshirish uchun ta'lim tizimining barcha bosqichlarida yangi o'qitish texnologiyalarini qo'llash, talabalarni davlat ta'lim standartlari asosida yaratilgan o'quv adabiyotlari (darslik, o'quv va o'quv-uslubiy qo'llanmalar) bilan ta'minlash asosiy vazifa qilib qo'yildi.

Normativ-huquqiy bazani takomillashtirishning mantiqiy davomi sifatida 2021-yil 19-may kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida Xorijiy tillarni o'qitishni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5117-sonli qarori qabul qilindi. Mazkur qarordan ko'zlangan asosiy maqsad xorijiy tillarni o'qitishni talim siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida rivojlantirish, ushbu yo'nalishda talim sifatini yanada oshirish, talim muassasalariga malakali kadrlarni jalb etish hamda eng asosiysi ushbu harakatlar zahirida yoshlarni ilm-fanning so'nggi yutuqlaridan bohabar bo'lish barobarida o'z sohasida yetuk mutahasis bo'lib yetishishi uchun yetarlicha malumotlar bazasini mustaqil yarata olish ko'nikmalarini shakllantirishdan iboratdir. Qarorda belgilangan

muhim o'zgarishlardan biri, bu Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish agentligi hamda uning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar hamda Toshkent shahrida hududiy vakillari faoliyati yo'lga qo'yilmoqda. Bu tuzilmani tashkil etish zahirida amalga oshirilishi kutilayotgan o'zgarishlarning nechog'liq muhim ahamiyatga egaligini ko'rishimiz hamda buni sohani rivojlantirish yo'lidagi say-harakatlarning debochasi sifatida qabul qilishimiz mumkin.

Bilim ostonasi bo'lmish maktablar inson hayoti davomida egallaydigan ilmlar uchun tamal toshi bo'lib xizmat qiladi. Zero, "Yoshlikda olingan bilim, toshga o'yilgan naqsh kabidir". Shu naqlning amaliy ifodasi sifatida ko'rishimiz mumkinki so'nggi yillarda maktab talimini rivojlantirishga katta etibor qaratilmoqda. Jumladan, ushbu qarorda belgilanishich, kelasi o'quv yilidan boshlab 207 tuman(shahar)da chet tillarini o'qitishga ixtisoslashtirilgan maktablar tashkil etiladi. Maktablar o'rtasida tuman(shahar), viloyat hamda respublika miqyosida tanlovlar tashkil etiladi hamda g'oliblar belgilangan tartibda 100 mln, 250 mln hamda 500 mln so'mgacha pul mukofoti bilan taqdirlanadi. Qishloq joylarda chet tillarini o'qitish markazlarini tashkil etgan tadbirkorlarga 50 mln so'mgacha bir marttalik subsidiya ajratish tizimi joriy etiladi.

Ta'lim bunyodkori bo'lmish mutaxassis pedagog kadrlarga bo'lgan talab yildan yilga ortib bormoqda. Ushbu sohada amalga oshiriladigan ishlar samaradorligi bevosita ushbu sharaflil kasb egalariga bo'lmish o'qituvchilarga ko'p jihatdan bog'liqdir. Shu bois, qarorda belgilanishicha, 2021/2022 o'quv yilidan boshlab chet tilini C1 va undan yuqori darajada o'zlashtirgan xorijiy til o'qituvchilariga bazaviy tarif stavkasiga nisbatan 50% ustama to'lash amaliyoti joriy etilmoqda. Bu, albatta, sohaga yetakchi mutahasis kadrlarni jalb etish hamda mavjudlarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash yo'lida amalga oshirilayotgan islohotlarning davomi sifatida etirof etiladi.

Bugungi kunda yangi darsliklar, o'quv va o'quv-uslubiy qo'llanmalar yaratilmoqda. Ular talabalar savodxonligini oshirish, nutqini o'stirish, aqliy qobiliyatini rivojlantirish, mantiqiy fikrini takomillashtirish, ijodiy fikrlay olish hamda ta'lim tizimlari

orasidagi uzviylikni ta'minlashga qaratilmoqda. Chet tili darsi jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish, talabaniq tilga bo'lgan qiziqishini yanada oshirish va ularning tildan egallaydigan bilim, malaka va ko'nikmalarini yuqori bo'lishini ta'minlaydi.

Huquqshunos talabalarning kasbiy omilkorligini oshirishda chet tilining roli juda katta. Bugungi kunda TDYUning bakalavr va magistratura boskichlarida "Yuristlar uchun xorijiy til" va "Xorijiy mutaxassislik tili" fan modullari bo'yicha tuzilgan o'quv dasturlari asosida chet tillari (ingliz, nemis, fransuz)dan amaliy mashg'ulotlar olib borilmoqda.

2020-yil 29-apreldagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "O'zbekiston Respublikasida yuridik ta'lim va fanni tubdan takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PF-5987-sonli Farmoni yuridik ta'lim sohasidagi barcha professor-o'qituvchilar, ilmiy izlanuvchilar zimmasiga yuksak ishonch va ma'suliyat yukladi.

Mazkur farmonda biz biz pedagoglarga tegishli bir qator vazifalar yoritilgan :

- zamonaviy talablar va xalqaro ehtiyojga mos yuqori malakali, ijodiy fikrlaydigan, halol kadrlar tayyorlash;

- o'qitishning kredit-modul tizimini takomillashtirish, o'quv jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng qo'llash va o'quv bazasini modernizatsiyalash;

- rivojlangan xorijiy davlatlarning yetakchi ta'lim va ilmiy muassasalari bilan hamkorlikni, qo'shma huquqiy tadqiqotlarni, professor-o'qituvchilar va talabalar o'zaro almashinuvini faollashtirish;

- xorijiy hamkorlar bilan birgalikda yuridik kadrlarni tayyorlash bo'yicha qo'shma ta'lim dasturlari (double degree) ni amalga oshirish, o'quv-ta'lim jarayoniga xorijiy olimlar va mutaxassislarni faol jalb etish;

- xalqaro miqyosda milliy yuridik ta'lim raqobatbardoshligini oshirish;

- Yaponiyaning Nagoya Universiteti, Germaniya Federativ Respublikasining Regensburg Universiteti, Buyuk Britaniya va Xitoy Xalq Respublikasi oliy ta'lim muassasalari bilan qiyosiy huquqni o'rgatish markazlarini tashkil etish;

- 2020-2025-yillarda chet ellik olimlarning yuridik fanlar bo'yicha o'quv adabiyotlarini davlat tiliga tarjima qilish va chop etish;
- xalqaro hamkorlar bilan birgalikda yangi avlod darsliklari va o'quv adabiyotlari yaratish kabilar.

10. Masofaviy, sirtqi va kechki o'qitish shakllarini tashkil etish kabilar.

Yoshlarni har tomonlama mukammal, komil inson qilib tarbiyalash hamda ta'lim berish biz pedagoglarning asosiy vazifamiz hisoblanadi. Shu bois respublikamizning jahon hamjamiyatidagi nufuzi yanada oshayotgan bir paytda siyosiy, iqtisodiy, madaniy sohalar rivojida va chet el hamkorlar bilan muloqot o'rnatishda har tomonlama salohiyatga ega bo'lgan yosh mutaxassislariga ehtiyoj yanada oshmoqda.

Huquqiy xorijiy til (Legal foreign language) huquqshunos talabalar uchun ularning kasbiy omilkorligini oshirishda asosiy rol o'ynaydi. Rivojlangan davlatlarning sud tizimlari, xalqaro tashkilotlar faoliyatini izchil o'rganishda va huquqshunoslik kasbining istiqbolida xorijiy tilning quyidagi vazifalarini sanab o'tamiz:

1) xorijiy davlatlar (AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya) sud va qonunchilik tizimlarini o'rganishga qulaylik yaratish;

2) jahon yurisprudensiyasiga kirib borish;

3) xalqaro huquqni o'rganishga erishish;

4) xorijda tadqiq etilgan huquq yo'nalishlari bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni tahlil qilish;

5) chet el qo'shma korxonalariga amaliy yordam berish;

6) huquq sohasida kasbiy omilkorlikni oshirish;

7) chet tilda asliy huquqiy adabiyotlar o'qish va ularni o'rganish;

8) xalqaro anjumanlar, uchrashuvlar, seminarlarga qatnashish uchun qulaylik yaratish;

9) huquqshunos talabalar (magistrlar) bitiruv malakaviy ishlarini chet tilida yozish va himoya qilish;

10) huquqshunoslarning kasbiy malakasini rivojlantirish maqsadida chet el oliygohlarida ta'lim olish.

Mazkur vazifalarga asoslanib huquq institutlarida chet til

ta'limi o'z oldiga quyidagi maqsadlarni qo'yadi: amaliy, ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi, kasbiy.

Amaliy maqsad – chet tilida og'zaki va yozma yuridik nutqni shakllantirish. Ta'limiy maqsad – tili o'rganilayotgan mamlakatlarning madaniyati bilan tanishishga imkon yaratish, talabalarda kommunikativ, lingvistik va sotsiolingvistik kompetensiyani shakllantirish.

Tarbiyaviy maqsad – chet tili orqali huquqshunos shaxsining ijtimoiy faolligini shakllanishini ta'minlash.

Rivojlantiruvchi maqsad – til qobiliyati ona tili va chet tilidagi nutq madaniyati, umumta'lim malakalari chet tili o'rganishga asoydil qiziqishni rivojlantirishga qaratilgan.

Kasbiy maqsad – bu bo'lajak huquqshunoslarning kasbiy layoqatini shakllantirishda huquqiy atamalarni chuqur o'rganish hamda kasbiy yo'naltirilgan holda talabalarining nutq malakalarini yanada oshirishga qaratilgan. Shu asnda chet til ta'limida kasbiy-huquqiy maqsad alohida o'rin egallaydi, hamda boshqa (dastlabki) maqsadlar mazmunini belgilaydi. Shubhasiz, dastlabki to'rt maqsad oxirgisiga tobe bo'lib, ya'ni ushbu maqsadlar yutug'i so'zsiz huquqshunos talabalar kasbiy nutq malakalarini shakllantiradi.

Ta'kidlash joizki, huquq institutlarida chet til ta'limi maqsadlari mazmunini yanada kengaytirish uchun maxsus (kasbiy) yondashuv nazarda tutiladi. Chet til ta'limini yanada rivojlantirish va ta'lim sifatini oshirish maqsadida darslik, o'quv, o'quv-uslubiy qo'llanmalar yaratish biz pedagoglarning asosiy vazifamizdir va bu xalqaro maydonda yuqori saviyali huquqshunoslarni yetishtirib berish imkonini yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, jamiyatimizning asosiy bo'g'ini bo'lgan yoshlarimiz oldidagi vazifalardan biri mamlakatimizni jahonning eng ilg'or, rivojlangan mamlakatlari qatoriga olib chiqishlari uchun hamda zamonaviy fan-texnika yutuqlarini mukammal o'rganib, xalqaro darajadagi yuksak kadrlar bo'lib yetishishlari uchun xorijiy tillarni puxta bilishlari muhim. Shundagina O'zbekiston jahonning ko'zga ko'ringan mamlakatlari qatoridan munosib o'rin olishiga, kelajagimizning buyuk bo'lishiga mustahkam zamin yaratiladi.

Oxunjon Abdullayev,

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
O'zbek tilshunosligi kafedrası o'qituvchisi

YURIDIK TERMINLARNING ZAMONAVIY IZOHLI LUG'ATINI TUZISH MASALALARI

Bugungi kunda barcha jabhalarda bo'lgani kabi huquq sohasi ham insoniyat uchun suv va havodek eng zarur bo'g'inlaridan biridir. Hayotimizni qonunlarsiz, huquqlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi, binobarin, huquqni amalga oshirish va uni himoya qilish uchun shaxs huquqiy madaniyatga ega bo'lishi shart. Shu bois, huquqiy madaniyat demokratik taraqqiyotga erishishning zaruriy vositasidir. Huquqiy madaniyatni yanada yuksaltirish islohotlari olib borish davlatning rivojlanish strategiyalaridan biri bo'lmog'i zarur. Huquqiy madaniyatning jamiyat hayotidagi o'rni ko'p qirrali. Huquqiy madaniyat insoniyatning uyg'un rivojlanishining o'ziga xos shakli bo'lib, u orqali umumiy ijtimoiy taraqqiyotga erishiladi.

Ushbu taraqqiyot shaxsni boyitib, jamiyatni tinch va tartibli rivojlanish uchun zarur huquqiy shart-sharoitlar bilan ta'minlaydigan tegishli huquqiy qadriyatlarni (ijtimoiy nizolarni hal qilish usullari va vositalari, inson huquqlarini ta'minlash institutlari va boshqalar) yaratishni nazarda tutadi. "Fuqarolarning tinch, erkin va farovon yashashi Hukumat va mahalliy ijro organlari faoliyatining bosh mezoniga aylanishi zarur. Sud-huquq tizimini qoralovchi, jazolovchi organdan inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qiluvchi organga aylantirish – islohotlarimizda hal qiluvchi ahamiyatga ega".

Huquqiy madaniyat insoniyat tomonidan to'plangan huquqiy qadriyatlarning yo'nalishi bo'lib, uning barcha elementlari (normalar, huquqiy hujjatlar, institutlar, jarayonlar, rejimlar, maqomlar) inson ruhi, tarixiy tanlovi, mehnati, hayotiy

aprobatsiya. Bu tur madaniyat amalda yagona global shakl bo'lib, u orqali milliy huquqiy hodisalarning qadr-qimmati va o'ziga xosligi - davlatchilik, huquq-tartibot, huquq tizimi takrorlanadi. "Fuqarolar siyosiy-huquqiy madaniyatini yuksaltirishda davlatning fuqarolar murojaatlariga munosabati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan faqat fuqarolargina emas, balki davlat ham manfa'atdordir. Chunki fuqarolarning murojaatlari mamlakatda ularning umumiy ahvolini, siyosiy faolligini va turmush darajasini hamda ehtiyojlarini, talab-istaklarini ko'rsatuvchi ko'zgu vazifasini bajarishi, fuqarolik jamiyatini shakllantirishda o'z natijasini berishi mumkin".

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardan oq davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi mamlakatda huquqiy demokratik davlat, adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etish, fuqarolarning siyosiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, ijtimoiy faolligini oshirish hamda davlat va jamiyat boshqaruvida ishtirokini kengaytirish bo'lib kelmoqda. Ushbu islohotlarda asosiy ro'llardan birini huquqni muhofaza qiluvchi organlar egallaydi. Sababi esa ishlab chiqilgan, hayotimizga joriy qilingan qonunlarni bajarilishini ular nazorat qiladi. Ularning faoliyatida ishlash samaradorligini yana yaxshilash uchun ushbu "Yuridik terminlarning zamonaviy lug'ati" katta hissa qo'shadi deb o'ylaymiz.

To'g'ri shu kungacha yuridik lug'atlar kitoblari yetarlicha edi, lekin ushbu lug'atni yaratishdan maqsad yuridik lug'atlar, asosan, o'zbek (kiril) alifbosida yozilgan bo'lib, atamalarning qanday kelib chiqishi va tarixi haqida ma'lumotlar kam berilgan. Ushbu lug'atda esa yuridik atamalar lug'atlari zamon bilan hamnafas va hozirgi yoshlarning ehtiyojlaridan kelib chiqilgan holda o'zbek (lotin) alifbosida yaratiladi. Bundan tashqari har bir chet tili so'zlaridan olingan atamalar lug'atlari haqida uning tarixi haqida ham alohida to'xtalib o'tiladi. Bunda "Yuridik atamalar qomusiy lug'ati", yangi tahrirdagi "O'zbekiston tilining izohli lug'ati" va xorijiy adabiyotlaridan manba sifatida keng foydalaniladi. Ushbu

“Yuridik terminlarning zamonaviy lug‘ati” yuridik sohada faoliyat olib boruvchi xodimlar, o‘qituvchi-professorlar, o‘quvchi-yoshlar, mustaqil izlanuvchilar va eng ahamiyatlisi huquq sohasiga qiziquvchi, o‘z huquqlariga befarq bo‘lmagan fuqarolarimizga amaliy ko‘makchi bo‘lib xizmat qiladi.

Yuridik terminlarning bunday turli-tuman shakllarda qo‘llanishi yuridik amaliyotda salbiy holatlarga olib kelmoqda, chunki bunday yuridik terminlarda semantik jihatdan o‘ziga xos ma‘no ziddiyatlari mavjud bo‘lib, ular yuridik matnning ichida berilganida bu ma‘no nozikliklari yana ham kuchayib, turlicha ma‘nolarni ifodalaydi. Bu esa normativ-huquqiy hujjatlarning mutaxassislar va fuqarolar tomonidan turlicha tushunilishiga, sharhlanishiga sabab bo‘lmoqda, amaliyotda ijro jarayoniga ham ma‘lum ma’noda salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Bu esa yuridik tilda mutlaqo yo‘l qo‘yib bo‘lmaydigan holat hisoblanadi. Chunki yuridik hujjatlar o‘ta aniq va ravon ifodalanishi kerak, ularni o‘qigan shaxs turli ma‘nolarni tushunmasdan, faqat va faqat qonunshunos nazarda tutgan birgina ma‘noni tushunishi lozim. Qonunni hamma o‘zicha tushunadigan bo‘lsa, u mamlakatda huquqiy tartibotni ta‘minlamasdan, aksincha, boshboshdoqlikni keltirib chiqaradi. Bundan tashqari, ayrim yuridik terminlarimizning noto‘g‘ri shakllarda berilishi fuqarolarimiz huquqiy ongi va huquqiy madaniyati o‘rishida salbiy rol o‘ynaydi.

Hozirgi paytda ayrim yuridik terminlarimizning leksik ma‘nosiga e’tibor berilsa, ular o‘zlarining asosiy ma‘nosi bilan birga shu tushunchaga mazmun jihatdan yaqin bo‘lgan ma‘nolarni ham ifoda etadi. Masalan, rus tilidagi личный досмотр termini ikki xil, ya’ni: shaxsni ko‘rikdan o‘tkazish, shaxsiy ko‘rikdan o‘tkazish shaklida ishlatiladi. Bu, birinchidan, huquqiy normalarning xilma-xil shakllari, ya’ni sinonimiyasining vujudga kelishiga sabab bo‘lsa, ikkinchidan, shaxsiy ko‘rikdan o‘tkazish deb berilishi xato hisoblanadi. Chunki rus tilidagi личный досмотр terminini shaxsni ko‘rikdan o‘tkazish birikmasi

to'la ifodalaydi, shaxsiy ko'rikdan o'tkazish esa bu huquqiy tushunchaning mazmunini ochib bera olmaydi. Chunki shaxsiy ko'rikdan o'tkazish termini quyidagi ikki ma'noni ifodalaydi:

1) bir mas'ul shaxs tomonidan bir yoki bir necha kishining ko'rikdan o'tkazilishi;

2) bir nechta mas'ul shaxs tomonidan faqat bir kishining ko'rikdan o'tkazilishi.

Fikrimizning dalili sifatida hozirda ijtimoiy hayotimizda uchrab turadigan bir misolni keltirib o'tamiz. Jumladan, huquqshunos bo'lmagan fuqarolar O'zbekiston Respublikasiga fuqaro bo'lib kirish, uning shartlari va qonun-qoidalar bilan tanishmoqchi bo'lsa, hech ikkilanmay O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga murojaat qilishadi. Biroq ular o'z savollariga javobni Fuqarolik kodeksidan topisha olmaydi. Chunki O'zbekiston fuqaroligini olish shartlari va uning to'xtatilishi tartib va qoidalar Fuqarolik kodeksida emas, O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risidagi qonunda aks ettirilgan. Chunki fuqarolik kodeksi termini qonunning mazmun va mohiyatini to'la ochib bera olmaydi, u rus tilidagi гражданский кодекс terminidan mazmunan emas, so'zma-so'z tarjima qilingan (aslida fuqaroviy kodeks deb ishlatilishi zarur).

Xulosa qilib aytganda, mana shunday tushunmovchiliklar, noaniqliklarning oldini olish hamda qonunchilikni fuqarolarga soddaroq tushuntirish maqsadida "Yuridik terminlarning zamonaviy lug'ati"ni yaratish masalasi dolzarb masalalardan biridir. Qolaversa, ushbu lug'atning mobil ilova shaklini ham yaratish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Sababi yuridik terminlarni izohlash tushunish uchun doimo zarurat tug'ilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartirish kiritish va tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshirish yuzasidan

Konstitutsiyaviy komissiya a'zolari" bilan uchrashuvidagi nutqidan. Toshkent, 20.06.2022.

2. Sh. Xudoyberganov. "Huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiya asoslari" o'quv uslubiy majmua. Qo'qon-2022. 4-bet.

3. Turayeva, U. Yuridik terminlar tarjima yuridik terminlar tarjimasida sinonimiya tarjima muammosi sifatida. Farg'ona davlat universiteti, 2024, 30 (4), 82-bet.

4. Mahmudov N.M., Ko'chimov Sh. N., Sharipova N.E. Yuridik terminlarning ruscha-o'zbekcha lug'ati. Toshkent 2021.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH. M. Mirziyoyevning "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartirish kiritish va tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshirish yuzasidan Konstitutsiyaviy komissiya a'zolari" bilan uchrashuvidagi nutqidan. Toshkent, 20.06.2022

6. Xudoyberganov Sh. Huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiya asoslari (o'quv uslubiy majmua). Qo'qon, 2022. 4-bet.

7. Turaeva, U. Yuridik terminlar tarjima yuridik terminlar tarjimasida sinonimiya tarjima muammosi sifatida. Farg'ona davlat universiteti, 2024, 30 (4), 82-bet.

Nafisa Ashirbayeva,
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
O'zbek tilshunosligi kafedrası o'qituvchisi

HUQUQIY TERMINLARNING IZOHLANISHI VA LUG'ATLARDA IFODALANISHI

Bugungi kunda har qanday huquqiy hujjatlar qaror, farmon, farmoyish, qonun barchasi yuridik terminlar asosida hosil qilinadi. Har bir sohaga oid terminlar mavjud, xususan, yuridik sohaga ham. Masalan, matematika, kimyo, fizika, adabiyot va boshqalar aynan shu qatorga yuridik terminlar ham kiradi. Termin so'ziga izohli lug'atda shunday ta'rif berilgan: Termin [lot. Terminus-chek, chegara] fan, texnika, kasb-hunarning biror sohasiga xos muayyan bir tushunchaning aniq va barqaror ifodasi bo'lgan so'z yoki so'z birikmasi. Sh. Ko'chimov termin haqida shunday fikr bildiradi: Termin ma'lum bir sohaga oid maxsus tushunchani anglatuvchi va mazmun jihatdan bir ma'noni ifodalovchi so'z (so'z birikmasi)dir.

So'zlarning asosiy qismlariga nisbatan termin aniq bir ma'noli tushunchani ifodalashi bilan farq qiladi. Jamiyat hayotining turli sohalarida, shuningdek, huquqshunoslikda madaniyatlararo muloqot va xalqaro munosabatlarning rivojlanishi turli mamlakatlar vakillari o'rtasida aloqalarni o'rnatishni taqozo etadi. Natijada, ular o'rtasida ko'pincha huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadigan munosabatlar paydo bo'ladi (masalan, ular davlat shartnomasi yoki chet elda ishlash uchun oddiy ariza bo'lishi mumkin). Shu munosabat bilan bugungi kunda yuridik tarjima eng ommabop tarjima turlaridan biriga aylandi. Har qanday boshqa kasbiy soha tili singari, huquq tili ham o'ziga xos naqsh va xususiyatlarga ega, shu jumladan huquqiy atamalarning barqaror birikmalari, tarjimasi muayyan usullardan foydalanishni o'z ichiga oladi.

Huquqiy terminologiya o'ziga xos tadqiqot obyektidir, chunki u jamiyatning turli sohalarida qo'llaniladi. Huquqiy

terminologiyani eng muhim soha terminologiyalaridan biri deb hisoblash mumkin, chunki u kasbiy muhitda ham, til muloqoti va jamiyatning boshqa sohalarida ham keng qo'llaniladi va katta talabga ega. S.S. Alekseev huquqiy atamalarni qonun mazmunini (boshqa normativ-huquqiy hujjat) taqdim etishda foydalaniladigan tushunchalarning og'zaki belgilari deb hisoblaydi. Yuridik matn tuzishda so'z tanlash, zarur so'zni boshqa ma'nodagi so'zlar qatoridan ajratib olish muhim ahamiyatga ega. So'zlarni nutqning turiga, nutqning kimga atalganiga va maqsadiga ko'ra tanlash lozim: huquqshunos-publistsist nutq uchun siyosiy-falsafiy ruhdagi o'tkir, ta'sirchan so'zlar, ilmiy nutq uchun termin xarakteridagi atama so'zlar, badiiy nutq uchun esa badiiylilik bo'yog'iga ega bo'lgan, obrazlilikka xizmat qiladigan so'zlardan foydalanadi. Rasmiy nutqning turli hujjatlar ko'rinishlaridagi til xususiyatlari ham bir-biridan birmuncha farq qiladi. Tanlangan so'z adabiy nutqqa xos, nutq madaniyati me'yorlari doirasida bo'lishi lozim, chunki har qanday nutq – tarbiyalovchi omil, u eshituvchi va o'quvchilarda to'g'ri so'zlash va to'g'ri yozish ko'nikmalarini, savodxonlikni tarbiyalaydi.

Huquqqa oid har qanday fikr, tushuncha, belgi, harakat-hodisa va munosabat so'zlarda o'z ifodasini topadi, ya'ni so'zlardan, iboralardan, atama va terminlardan tarkib topgan ifoda qolipiga, ifoda shakliga tushmaguncha munosabat, ijtimoiy aloqa, muomala (fikrlashuv) yuzaga chiqmaydi. Yuridik fikrning voqe bo'lishi ham, mavjudligi ham tilda namoyon bo'ladi. Tilsiz, so'zsiz hech qanday aniq va tayyor holdagi yuridik fikr bo'lmaydi. Yuridik tilda fikr so'zlar, sohaga oid terminlar va bular ishtirokida tuzilgan gaplar orqali shakllanadi va nutqda o'z ifodasini topadi: til huquqning "tiriklik" shartidir. Shuning uchun ham til va huquq jamiyatga xizmat qiluvchi ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy va ruhiy hodisalar hisoblanadi, til huquqqa ruh baxsh etuvchi vosita hisoblanadi.

Darhaqiqat, til yuristning tafakkur yuritish quroli bo'libgina qolmasdan, balki huquqqa oid o'tmish bilimlarni hozirgi avlodga

yetkazish, huquqiy me'yorlar bilan fuqarolarni tanishtirish quroli hamdir. Bugungi boy ma'naviy merosimiz bo'lgan huquqqa oid barcha bilim va ta'limotlarning mavjudligi va "tirikligi" ham til tufaylidir. Davlatimizda bugungi kunda islohotlar eng qamrovda olib borilayotgan sharoitda qonunlar tili va uslubi, huquq terminologiyasi muammolari hamda zamonaviy yuristning nutq madaniyati masalalari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Har qanday turdagi islohotlar qonunlarni o'zgartirmasdan amalga oshirilmaydi, bu esa o'z-o'zidan, yangi-yangi til birliklarining rivoj topishi uchun zamin hozirlaydi.

Terminlar umumiste'moldagi so'zlardan o'ziga xos ayrim xususiyatlari bilan farqlanadi. Birinchidan, so'zlar fan-texnikaning ma'lum tarmog'ida qo'llanilib, iste'mol doirasi chegaralansa, terminlarga aylanadi. Masalan, guvoh, zarar, tuhmat, qo'rqitish kabi umumiste'moldagi so'zlar yurisprudensiya sohasida ilmiy-rasmiy ma'nolarni ifodalab, hozirgi kunda terminlar tizimiga kirgan.

Guvoh so'zi umumxalq tilida biror voqea-hodisa ro'y bergan paytda shaxsan bo'lgan, uni o'z ko'zi bilan ko'rgan kishi ma'nosini anglatasa, yuridik terminlar tizimida jinoyat ishi bo'yicha aniqlanishi lozim bo'lgan holatlar haqida qonunda belgilangan tartibda so'roq qilinadigan shaxs ma'nosiga ega atama hisoblanadi. Tuhmat so'zi umumiste'molda bironi nohaq ayblash yoki qoralash, nomini yomonga chiqarish maqsadida o'ylab chiqarilgan asossiz da'vo; bo'hton. Masalan, Tuhmat tosh yoradi, tosh yormasa, bosh yoradi (Maqol). Bu so'z yurisprudensiyada yuridik termin sifatida shaxsning qadr-qimmati va or-nomusiga qilinadigan tajovuz ma'nosini anglatadigan jinoyatning nomini anglatuvchi termindirdir (JK, 139-modda).

Bundan tashqari jazo, jarima, ko'zdan kechirish, mulk, omonat, topshiriq, qarzdor, hadya, shikoyat, da'vo kabi umumiste'moldagi so'zlar ham yurisprudensiya sohasida yuridik tushunchalarni bildiradi. Bunday so'zlar chegaralangan ma'noda qo'llanilib, terminologik ma'no hosil qiladi. Ikkinchidan, termin nominativ

(nomlash) vazifani bajaradi. Terminning ma'nosi adabiy til me'yorlari doirasida tushunchaga teng bo'ladi. Chunki bir terminologik tizimda termin bir ma'noli bo'lgani uchun uning ma'nosi tushunchaga teng keladi. Ya'ni terminlar bir ma'noni ifodalovchi maxsus rasmiy so'zlardir. Ko'p ma'noli birgina so'z esa bir necha tushunchani ifodalaydi. Uchinchidan, termin aniq, konkret tushunchalarni bildirib, his-hayajon ma'nolaridan xoli bo'ladi.

So'zning ma'nosi murakkab bo'lganligi bois unda tushuncha qo'shimcha ma'no va uslubiy belgilarga ega bo'ladi. Shunga ko'ra tilda bir tushunchani anglatadigan sinonimlar turli ma'no qirralari yoki uslubiy qo'llanilishi bilan bir-birlaridan farq qiladi. Ayniqsa, yuridik sohada sinonimik qator hosil qilgan so'zlarni ma'no nozikliklariga ko'ra farqlab ishlatish maqsadga muvofiqdir . Masalan, inson, odam, kishi, shaxs, bashar, fuqaroso'zlari bir umumiy tushunchani bildirib, sinonimlar hisoblansa-da, biroq turli ma'no qirralariga ko'ra bir-biridan farqlanadi: davlat fuqarosi deyish o'rinli, biroq davlat insoni yoki davlat shaxsi deb matnga kiritish mumkin emas. To'rtinchidan, terminlarning yana bir o'ziga xos belgisi shundaki, terminlar rasmiylashgan so'zlar bo'lganligi sababli respublika miqyosida, hatto dunyo miqyosida bir tushunchani anglatadi. Bunga xalqaro terminlarni misol sifatida keltirishimiz mumkin: impichment, demokratiya, respublika, prezident, parlament, amnistiya, deputat, konstitutsiya, kriminologiya va h.k. Bunday terminlar yer yuzining barcha qit'alarida bir xil ma'noda qo'llaniladi .

Shuningdek, terminlar muayyan bir sohaga oid bo'lib, muayyan mutaxassislar tomonidan maxsus qabul qilingan, rasmiylashgan leksik birliklar sanaladi. Shuning uchun bir tushunchani ifodalovchi terminni boshqa bir so'z bilan almashtirish mumkin emas. Ya'ni bir tarmoq terminlari tizimida sinonimiya yoki dubletning qo'llanilishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Masalan, huquq, burch, shaxs, subyekt, yuridik shaxs, kriminalistika, demokrat, tergovchi, modda, jinoyatkabi terminlar o'rniga muqobil variantlar izlash nojoizdir.

Xulosa qilib aytganda, yuridik til o'ziga xos lug'aviy birliklari, gap qurilishi, uslubiy jihatlari hamda huquqqa oid tushunchalarni ifodalovchi terminlari bilan ajralib turadi. Huquqshunoslikka doir barcha manbalar yuridik tilda yoziladi. Tergov jarayoni, sud, advokat faoliyati, qonunlar ifodasi ham yuridik til asosida yuzaga chiqadi. Shunday ekan, yuridik sohaga oid matnlarni tuzishda har xil noo'rin qaytariqlar, so'z takrorlari, tushunilishi qiyin ifodalar hamda ortiqcha sifatlashlar, ko'chma ma'noli so'zlarni ishlatishdan tiyilish, sohaga xos bo'lgan terminlarni o'z o'rnida qo'llay bilish mutaxassisidan yuksak mahorat va bilim talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.: O'zbekiston, 2012.
2. Usmonov S. Yuristning nutq madaniyati. T., 2007.
3. Begmatov E., Mamatov A. Adabiy norma nazariyasi. T.: 2003.
4. O'zbek tilining imlo lug'ati. Tuzuvchilar: Sh.Raxmatullayev, A.Hojiyev.
5. Mirtojiyev M., Mahmudov N. Til va madaniyat. T.:O'zbekiston, 1992.
6. Mahmudov N., Rafiyev A., Yo'ldoshev I. Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish. T., 2014.

Raxima Odilova,

Toshkent shahar Shayxontohur tumani 136-maktab
o'zbek tili va adabiyot fani o'qituvchisi

HIKOYALARDA BOLA OBRAZI: BADIY NIYATNI AMALGA OSHIRISHDA PORTRETNING O'RNI

Ma'lumki, hikoya janri kichik epizodni bayon qiluvchi va murrakkabliklarni ixchamlashtirishni, biroz soddalashtirishni zimmasiga oladi. Hikoyada qisqa syujet chizmalaridan maksimal darajada foydalaniladi. Uning imkoniyatlari esa detallarda, qisqa dialoglarda, hatto peyzaj va portretlarda ham aksini topadi. Huddiki, tilshunoslikda gap vazifasini ba'zan ibora (frazzeologiya) bajara olganidek. Uning yana bir tipik xususiyati mutolaa vaqtida muallifning kitobxon bilan qisqa suhbatida ya'ni voqeaga nisbatan erkin xulosa qilishi uchun imkon yaratishidadir.

Bola obrazi qisqagina epizodik ishtiroki bilan ham butun bir fojiani yoritib berishi mumkin (yosh bolaning jinoyat olamiga kirib qolishi, yetim qolishi, nuqsonli bo'lishi, majburiy mehnatlarga jalb qilinishi va boshqa ko'plab jarayonlar ichida bo'lishi nazarda tutildi) va bu vazifani bajarishda yozuvchidan ko'p ham emotsional bo'yoqlar talab etmaydi. Bu kabi beg'ubor bola obrazi ham beg'uborlikni tabiatida (xarakter) saqlab qoladi. Ijodkor asarida bola obrazini tasvirlashda ham, biror hodisaga guvoh sifatida kiritishi, obrazga ma'lum bir vazifani yuklashi mumkin. Har bir obraz o'zining xos xususiyatidan kelib chiqib ma'lum bir vazifani bajaradi. Bola bilan bog'liq eng qayg'uli yoki eng qiziqarli sarguzasht bo'lsin har kitobxon o'qiganida ta'sirchanlik (yuzda tabassum yoki qayg'u, achinish alomatlari) uyg'onmasligi mumkin emas. Bu esa bolaning obrazini yaratishda muallif xarakteristikasi, portret, badiiy psixologizm, personaj nutqi kabi unsurlarda soddaroq tasvir usulini talab etadi. Bola obrazini yaratishda ham portret muhim omillardan sanaladi. Chunki bu ham asarga voqea jihatidan muhim ma'lumotlarni

qo'shadi. Portret bilan bog'liq tasviriy belgilar hikoyaning asosi bo'lishi ham, hikoyaning so'z boshi ham mumkin. Deylik, portret tasvirida tanadagi, yuzdagi chandiq, ifoda o'sha obrazning tarixini hikoya qilishi mumkin. O'tkir Hoshimovning "Hotam-xasisning xazinasini" hikoyasi shu usulda (bolaning surati bilan boshlanadi) hikoya qiladi.

"Sonya degan olti yoshli ikkinchi singlisi esa lotoga qiziqib o'ynaydi, uning yuzi faqat sog'lom bolalarda, qimmatbaho qo'g'irchoqlarda va chiroyli suratlardagi kabi shirmoyday" va "Lotobozlarning beshinchisi – oshpaz xotinning chit ko'ylak kiyib, ko'kragiga mis krest osib olgan qoramag'iz, ranggi zahil o'g'li Andrey" tasvirlari bolalarning ijtimoiy holatidan darak beradi. Bolalarga xos umumiylik bu – ularning tabaqalashtirmay birgalikda o'yin o'ynashlari bo'lsa, muallif xarakteristikasi ijtimoiy, maishiy yoki boshqa sabablarga ko'ra ularni farqlab turadi. "ranggi zahil", "chit ko'ylakli" tasviri "yuzi qimmatbaho qo'g'irchoqlarnikidek, shirmoyday" kabi tasvirga zidlantirish ham hikoya etilayotgan voqeaga lozim bo'lgan tasvir hisoblanadi.

Muallif obrazni ruhiyatini yoritishda ikki asosiy unsurga tayanadi: ular ichki yoki tashqi. Ichki unsurga ko'ra tasvirlangan personaj o'zining va tashqi olamning sifatlarini o'zicha tahlil qilganida ko'rinadi: "A'zoyi badanim bilan Habibullaning kulgisini, ta'nasini kutdim. Gaplariga quloq soldim. Yo'q... Boshqa mavzuda... Sezmadim... Iyagimni qashimoqchiday bo'lib, olmani sekin og'zimga eltdim... Kars... Shum bola kuzatib kelayotgan ekan:

– A-ha! – deb yuborsa bo'ladimi" . Hikoyada bola do'stini "shum bola" deya tasvirlaydi. Ichki taassurotlari ichida o'ylaydi, hammaga doston qilmaydi.

Tashqi omil atrofidagi insonlarning mazkur obraz haqidagi fikrlarini kompleks tarzda namoyish etadi. Bunga misol tariqasida "Jintepa" hikoyasidagi roviy bola – Rustam haqida qo'shnisining fikrini keltirish mumkin:

"Nima? Jintepa? Hamma g'alva sen takadan chiqadi.

– U qaddini rostlab menga o'qlov o'qtaldi. Yo'ldan urma bolani! Ikkalangniyam jin chalib, og'zingni qiyshaytirib ketadi". Bu hikoyada roviy bolaning o'zi ekanligi sabab, o'zi haqidagi atrofdagilarning fikrini eshitmaguncha faqat taxmin qila oladi xolos. Hikoyada esa bunchalar uzun tasvirga hojat ham yo'q. Qo'shni buvining bu kabi fikridan bolaning sho'x ekanini anglash mumkin.

Uchinchi unsur ham borki hikoyada batafsil qo'llanilmasligi mumkin, ya'ni bunda muallif o'zi e'tiborini qaratgan obrazining hissiy portretini namoyish etish (izohlash) orqali uning fe'li va ruhiyatidan ham ma'lumot berishi mumkin.

Masalan, "Halimaning labi pirpirab, yig'lab yuboray deytganidan bu yomon gap ekanligini tushundim" ("Hurkitilgan tush" hikoyasidan olindi). "Labi pirpiragan", "yig'lab yuboray deytgan" tasvirlar turg'un emas balki insondagi beqaror emotsional portret hisoblanadi. Ba'zi vaziyatlarda uchraydi va tez-tez o'zgarib turadi.

Shuningdek, portret masalasi ham yozuvchining ijodiy niyatiga uyg'un tarzda obrazni yanada kitobxonga tanishtiradi va tasavvurda jonlantiradi. Hissiy portretdan asosiy farqi, uning o'zgarish xususiyati sustroq kechadi (yillar davomida ulg'ayish, qarish yoki chandiqlar, operatsiyalar natijasi bo'lishi mumkin) va tashqi ko'rinishinigina ifodalaydi. Ya'ni emotsionallik kabi tezda almashinmaydi. Hissiy portret yuz ifodalari orqali ularning ichki holatini ko'rsatadi. Bolalar buni nazorat qilmaydilar, shu sababli chehralari samimiylilikni ham ifodalab turadi. Badiiy portret esa asosan tashqi ko'rinishni tasvirlaydi. Ularning tana, yuz tuzilishi psixologik belgilarini yoki hayoti davomida o'zgartirgan voqea hodisalarni bildiradi (yuzdagi chandiq biror voqeaning yoki obrazning ajratib turuvchi belgisi sifatida izohlanishi mumkin). Anvar Obidjonning bir asarida badiiy portretni shunday tasvirlaydi: "...nomi tarixda qolishini hali bilmagan chog'laridayoq, tashqi qiyofasi bilan boshqalardan yaqqol ajralib turarkan: ikki lunji nog'ora, beti oftobdan zog'ora, jag'ida eshak tepkisi naqshlangan

chandiq, qorni naq qirq pudlik sandiq, burni mushuknikidek puchuq, yelkasi baayni hurpaygan chumchuq, bo'yni oldinga enkaygan, quloqlari dinkaygan, oyoq bosishi ilang-bilang, yoshi Yozyovon cho'ldek yap-yalang, ko'rinishidan kamgap-u anqov, aslida mahmadana-yu mijg'ov, ko'zlari boyqushnikidek ola..... xullas, rosayam qiziq bola ekan . Bu badiiy tasvir qissa janriga mansub, tasvir imkoniyatlari kengroq bo'lishiga qaramay hikoyada ham uchrashi mumkin obraz xususiyatlaridan biridir.

Bularda yozuvchi ijodiy konsepsiyasi ham namoyon bo'ladi. Har bir obraz o'z xatti-harakati yoki qo'shimcha vositalar yordamida ochiqdanib boradi. Bunda muallif obrazlar portreti, ramzlar, dialoglari, detallar, makon va zamon tasviri, voqea-hodisa va boshqa obrazlar nuqtai nazari bilan ham yoritishi mumkin. Xullas, hikoyadagi nomi bor barcha foydalanilgan so'zlar o'zini fosh etadi va bekorga tilga olinmaganini bildiradi. Barcha detallar o'z vazifasini bajargan bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Xolmirzayev Sh. Olma yemadim hikoyasi. <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/shukur-xolmirzayev-1940-2005/shukur-xolmirzayev-olma-yemadim-hikoya>

2. Hoshimov O'. (Jintepa hikoyasidan parcha). O'zbeklar. Toshkent. G'G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2018 (128-b)

3. Hoshimov O'. O'zbeklar. Toshkent. G'G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2018. (29-b)

4. Obidjon A. Meshpolvon jangga otlandi. Yoshlar nashriyoti uyi. Toshkent. 2019

5. Chexov A. "Yosh bolalar" hikoyasi. <https://ziyouz.uz/jahon-nasri/anton-chexov/anton-chexov-yosh-bolalar-hikoya/>

6. Chexov A. "Yosh bolalar" hikoyasi. <https://ziyouz.uz/jahon-nasri/anton-chexov/anton-chexov-yosh-bolalar-hikoya/>

7. Xolmirzayev Sh. Olma yemadim hikoyasi. <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/shukur->

xolmirzayev-1940-2005/shukur-xolmirzayev-olma-yemadim-hikoya

8. Hoshimov O'. (Jintepa hikoyasidan parcha). O'zbeklar. Toshkent. G'G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2018 (128-b)

9. Hoshimov O'. O'zbeklar. Toshkent. G'G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2018. (29-b)

10. Obidjon A. Meshpolvon jangga otlandi. Yoshlar nashriyoti uyi. Toshkent. 2019.

Jahongir Kurbanov,

Teacher of department of

“Theory of state and law”

Tashkent state university of law

HISTORICAL AND LEGAL ANALYSIS OF LEGAL REGULATION OF THE STATE LANGUAGE

In modern legislation, the term “state language” appeared relatively recently - in the late 1980s. Before that time, throughout the Soviet period, the attitude towards the “state language” was clearly negative, and the use of this concept in the constitutions of three Soviet republics - Azerbaijan, Armenia and Georgia - was perceived as a kind of state and legal atavism. The foundations of this approach were laid by V.I. Lenin, who had a sharply negative attitude towards the introduction of a mandatory state language as contradicting proletarian internationalism and not ensuring full equality of all nations and languages.

The discussion about the need to introduce a state language that began in the late 1980s quite accurately reflected the current situation.

The 1990 USSR Law “On the Languages of the Peoples of the USSR” used the term “official language”. In addition, in the course of legislative work, as an alternative to the “general state language”, “state language”, “official language”, the amorphous concept of “language of interethnic communication” appeared, which was adopted by the legislation of some union republics. It never appeared in the all-Union legislation at that time, but to this day it sometimes appears in legislation in direct or indirect form .

Since Uzbekistan gained national and state independence, the Law on the State Language has been fully and actively implemented.

The granting of the Uzbek language the status of a state language stimulated the national and state revival of the Uzbek people, and along with it, other indigenous nations and peoples of the Republic.

Against in the socio-political life of the republic began in the second half of 1989 on October 21 was adopted the Law "On the state language". The first session of the 12th convocation of the Supreme Council of the Uzbek SSR held in March 1990 made a very bold decision at that time and very important in the future in the republic. It was decided to establish for the first time in the history of the union republics the Presidential Board. The Supreme Council of the Republic unanimously elected I.A. Karimov as the President of the Uzbek SSR .

In many societies, language has been used as an indicator of "authenticity," as a tool to justify claims to "one's" heritage, and it has often been seen not just as a component of culture, but as a matter of politics, economics, and religion .

In newly independent states with their societies that were bilingual and multilingual, the struggle over language is usually a reflection and expression of the conflict associated with the desire of a certain ethnic group for dominance, with the struggle for power. The language problem is not necessarily the direct cause of such conflict, but often exacerbates it. By the 1970s and 1980s, many non-Russian peoples of the Soviet Union felt that they were losing control over their linguistic situation.

The social hegemony of the Russian language was actively supported everywhere, and many sections of the local, indigenous population were fluent in Russian, which was the main subject of study in all schools .

However, the laws and regulations on languages adopted in various republics since 1989 and even more actively after independence testified to the growing popularity of linguistic nationalism, to the desire to overcome and change

the previously existing linguistic situation by turning the language of the titular nation of each state into a language of compulsory study and public use, which foreshadowed “the transfer to it of the former role of the Soviet language” .

The interdependence of national language and national self-awareness is also a relevant topic of research. V. von Humboldt pointed out that “the spiritual uniqueness and structure of the language of a people are in such close fusion with each other that as soon as one exists, the other necessarily follows from it.... Language is, as it were, an external manifestation of the spirit of nations: the language of a people is its spirit, and the spirit of a people is its language, and it is difficult to imagine anything more identical” .

The issue of examining the mutual influence of national language and national self-awareness is most relevant for multilingual societies, since the problems of legitimizing language within the social structure, studying it and introducing the population to national culture through language always give rise to various disputes.

he constitutional and legal consolidation of the state (or official) language is the central and most significant element of the legal regime of languages. It affects not only the issues of the use of national languages in legislatively defined spheres of official relations within the state territory, but also the rights of their speakers - both individuals and ethnic communities. The consolidation of the state language is characteristic primarily of states with a complex national structure of the population and a variety of national languages and dialects used by the population.

For a state with a mono-ethnic and, consequently, monolingual population, the establishment of a state language mainly consists of establishing the dominant position of one national language and securing guarantees of the rights of national minorities in the area of national-linguistic relations.

The introduction of a state language is sometimes conditioned not by the need to resolve language problems, but most often by historical reasons for the development of the state.

As a rule, the legislation of these countries does not contain legal norms that would establish a special legal regime for the national language. Meanwhile, there is no uniform legal solution to this problem. Thus, in Italy and Finland, the indigenous population is 94.06% and 93.35%, respectively.

And if the Constitution of Italy does not contain a norm on the state language, then the legislation of Finland establishes the status of the state language not only for Finnish, but also for Swedish - the language of a national minority (6.21% of the population). The President of the Republic of Uzbekistan Sh.M. Mirziyoyev noted that the Uzbek language, one of the ancient and rich languages of the world, is a symbol of national self-awareness and state independence for our people, a huge spiritual value.

Over the past years, the Uzbek language has become a spiritual bridge for representatives of more than 100 nations and nationalities living in Uzbekistan, serving to ensure peace and harmony in our society.

The outstanding Uzbek educator Abdullah Avloni noted that the life of any nation, like in a mirror, is reflected in its national language and literature.

Each state, in order to take a worthy place in the world community, strives first of all to preserve and develop its national language and culture. During the years of independence, a huge amount of work was done to implement the norms of the Law "On the State Language".

If we consider that there are more than 7 thousand languages in the world and only about 200 of them are state or official, it becomes obvious what a great significance this law has in the life of our people. Later, another law was adopted - on the introduction of the Uzbek alphabet based on the Latin

script. The Uzbek people are one of the most ancient peoples of Central Asia. Its formation dates back to more than 3000 years. Its formation is closely connected with the formation of the national language. The Uzbek language belongs to the family of Turkic languages.

The solution to the problem of the ethnogenesis of the Uzbek people, as well as the language, is actually in the plane of its close connection with the ancient peoples who lived in this territory - Sogdians, Bactrians, Khorezmians, Chachevs, Parikans, Saks, Massagets and others.

In total, more than 92 Turkic and non-Turkic tribes (Urugs) participated in the formation of the Uzbek people. Thus, in the very process of the formation of the Uzbek language, there is an active phase of language contacts and the influence of various languages on its formation.

Uzbek scientists distinguish the following historical periods in the process of the formation of the Uzbek language:

1. The period of unification of the Turkic and Iranian tribes (before the 4th century AD).

2. The oldest common Turkic language, which was formed on the territory of Central Asia, Altai and Mongolia (7th-9th centuries)

3. Eastern associations of the Turkic peoples and their common Turkic language, formed on the territory of Maverannahr, Khorezm, East Turkestan (Uzbek, Uyghur, Turkmen, Turkish, Kyrgyz; 10th-12th centuries).

4. The accession of new Turkic tribes to the Uzbek people and the formation of the old written Uzbek language (13th-16th centuries).

5. Formation of the new Uzbek written literary language (17th-19th centuries).

6. Formation of the modern Uzbek literary language (20th century). The Uzbek language belongs to the Karluk group of languages of the Turkic peoples. Toponymy and ethnographic

onomastics confirming this information have been preserved - Tuitepa, Angren, Okkurgon, Bachkir, Kurama, Durman. H. Hasanov cites about 83 ethnonyms characterizing the names of various tribes, peoples, Urugs, etc. (Karluk, Nukus, Sirgali, Savay, Bayovut, Olot). T. Nafasov studied 61 ethnotoponyms related only to the letter "B". S. Karaev indicates that out of 2800 names of villages, one third are ethnotoponyms .

Each territorial-administrative unit of Uzbekistan has such ethnotoponyms that were formed on the basis of mutual enrichment and mutual influence. Among these toponyms one can find those that arose under the influence of, for example, Mongolian, Iranian and other languages (Mitan, Katli, Karvak, Manak, Kurdik, Chanashik, Tat, Tajik, Kura).

In the formation of the Uzbek language, a special role belongs to the Urugs of Karluk and partially Kipchak, while in the most ancient periods of development, the language was influenced by Mongolian and Iranian-speaking tribes (Sogdians, Khorezmians, Scythians). "The most ancient borrowings in the Turkic languages include lexical units from Sanskrit, Tocharian languages, Sogdian and Chinese." M.G. Gafurov points to the kinship between the Iranian-speaking and Turkic-speaking tribes, and states that the Turkic-language speech was predominant. It is well known that by the middle of the 6th century (552) in the east, in the Altai region, the Turkic Khaganate was created. From this historical period, numerous written monuments have been preserved - bitigs, whose language can be called the common Turkic language .

The basis of this language was the languages of the Karluks, Oghuz, and Kipchaks. By 639-645, the Turkic Khaganate was divided into the Western Khaganate (capital - Yetisuv) and the Eastern Khaganate (center - Mongolia). Then the dismemberment of the hitherto integral union occurs: the unions of the Yakut, Oghuz, and Karluk tribes appear. All this influenced the development of the common Turkic language.

The Western Khaganate was subsequently divided into smaller territorial unions - Khorezm, Sogd, Bukhara, Chaganiyan, Takharistan, Chach, Fergana. In all historical periods of the formation and development of the Uzbek language, one can find the influence of other languages on it. For example, the toponym Khorezm consists of words of Iranian origin khvarri - khovar - sun, and the words zim - zamin - earth .

The Arabs, taking advantage of the division of the Turkic Kaganate, in 674–715. conquer the western part . From this time on, the process of a new stage in the development of the Uzbek language began, since the Sogdian culture, which had more than 2,000 years of history in this region, was lost. The practical use of the Sogdian language was narrowed, its place was taken by Persian and Arabic influence.

It can be said that by the 11th century there were few Turkic tribes who knew the Sogdian language. With the beginning of the Islamization of all aspects of life in Central Asian society, the era of the introduction of Arabic and Persian words into the vocabulary and lexical composition of the existing Turkic languages began. Arabic was perceived in this region as the language of science, and Persian was used as the language of office work and literature.

Although the Arabic language began to displace the Turkic languages from use, the Turkic script, primarily the "Uighur" script, existed until the 15th century. However, even during this period, the Chigil, Yagma, and Karluk tribes, who lived in Yetisuv, Shash, Fergana, Kashkadarya, Sirdarya, and Khorezm, mainly on the left bank of the Amu Darya, spoke Turkic languages. In some areas, bilingualism existed in everyday speech.

The influence of the Arabic language on the cultural and scientific life of society was so strong that later most scholars-encyclopedists, Islamic scholars, lawyers, historians, literary scholars and representatives of other humanitarian

sciences wrote their works only in Arabic. Arabic was used very actively by non-Arab Turkic peoples, natives of Central Asia. This process of narrowing the influence of Turkic languages and replacing Turkic languages with Arabic leaves an indelible mark on the development of the Uzbek language and its formation in new historical conditions. This process is evidenced by many written monuments and works of widely known in the Islamic world scholars-ulema, whose names and works were rehabilitated in the years of independence. Many scientists, natives of Central Asia, made a huge contribution to the development of Islamic culture .

Uzbekistan's independence not only restored freedom of religion and the Islamic faith, but also helped to restore the names of many people who left an indelible mark on the spread and development of Islamic culture. With the spread of Islam, the Arabic language became the basis of all social and scientific life of that time, and scholars from neighboring countries, in turn, contributed to the general development of Muslim culture. For example, the role of scholars from Central Asia in the study of poetics (aruz) was undeniable. Given this historical excursion, it is possible to conditionally divide the entire process of penetration of foreign lexical masses into the Uzbek language as follows:

I. The ancient period of language development and the influence of the parallel coexisting and transforming vocabulary of the Sogdians, Bactrians, Khorezmians, Chachi, Parikans, Saks, and Massagets on the Turkic-language vocabulary;

II. The pre-classical period of language development, the beginning of the formation of the identification of the Uzbek language proper and the influence of foreign borrowings on it;

III. The classical period of the development of the Uzbek language after the conquest of Central Asia by the Arab Caliphate, characterized by a turning point in the lexical

component of the linguistics of the Uzbek language, when a large part of foreign vocabulary was introduced in a short period of time. This period can be called the classical period of borrowings;

IV. The period of wide adoption and use of Arabic-language borrowings in the Uzbek language, as a result of which the historical memory of the nation perceives borrowings as a native original attribute;

V. A new era of borrowings (XX and XXI centuries). During this period, the nature of borrowings changes in connection with new political and social conditions. Borrowings become an integral part of the development of the Uzbek language and the replenishment of its vocabulary. International words from European and Russian languages penetrate into the Uzbek language, a terminology system is widely formed in all areas of scientific activity .

In conclusion of this point of the final qualification work, it is necessary to especially emphasize the importance of linguistic research on the issues of mutual influences and impacts of the Turkic, Persian, Arabic languages on the modern Uzbek language. The mechanism of borrowings from the modern Arabic literary language into Uzbek is of great interest for scientific linguistic research, and can be widely used in the practice of teaching both Arabic and Uzbek.

Literature:

1. Ларюэль М. Внешняя политика и идентичность в Центральной Азии // ProetContra. — январь-апрель 2013. — С. 6-20.

2. Так, в проекте Устава Иркутской области содержалась норма, в соответствии с которой на территории области русский язык является языком межнационального общения (ст. 5), в Конституции Карачаево-Черкесской Республики (принятой 5 марта 1996 г.) русский язык также назван языком межнационального общения (ст. 11), а в Законе

РСФСР «О языках народов РСФСР» (в его первоначальном варианте - в ред. Закона РФ от 25 октября 1991 г. № 1807-1) русский язык характеризовался как «основное средство межнационального общения народов РСФСР» (ст. 3).

3. Шакурова Г. З. Язык и поиск идентичности в процессе строительства национального государства стран Центральной Азии // Молодой ученый. — 2016. — №7. — С. 568-571. — URL <https://moluch.ru/archive/111/27408/> (дата обращения: 13.03.2020).

4. Latin D. D. Identity in Formation: The Russian-Speaking Population in the Near Abroad. Ithaca, NY: Cornell University Press. — 2008. — p. 10-28.

5. Шнирельман В. Символическое прошлое. Борьба за предков в Центральной Азии // Неприкосновенный запас. — 2019. — № 4(66).

6. Губогло М. Н. Языки этнической мобилизации. — М.: Школа «Языки русской культуры», 2008. 816 с.

7. Гумбольдт В. Фон. Избранные труды по языкознанию/ под ред. Рамишвили Г. В. – М.: ОАО ИТ «Прогресс», - 2011. 400 с. – С.68.

8. Абдуллаев И. Йатимат ад-Дахр — источник по истории арабоязычной литературы народов Мавараннахра и Хорасана. — М., 1977. – С.11.

9. Баскаков Н.А. Введение в изучение тюркских языков. — М., 2009. – С.28.

10. Adams L. The Spectacular State: Culture and National Identity in Uzbekistan. Durham: Duke Univ. Press., 2010.

11. Абу Али Ибн Сино. Саломон ва Ибсол. Лирика, фалсафий қарашлар, шеър санъати. — Ташкент, 1980.

12. Среди наиболее известных в общемировом масштабе ученых-исламоведов следует назвать Имама ал-Бухари (810— 870), Хакима ат-Термизи (750/760— 869), аз-Замахшари (1075—1144), Имама алМотуруди (870—975), Бурханиддина Маргинони (1116—1197),

Мухаммада ибн Махмуда ал-Уструшани (ум. 1240 г.); ученых энциклопедистов — ал-Беруни, Ахмада ал-Фергани, Ибн Сина, Абу Наср Фароби, Улугбек, Али Кушчи, великих мутасаввуфов таких, как Нажмиддин Кубро (1145—1221), Ахмад Яссавий (пр. 1050—1166/7), Юсуф Хамадони (1048—1140), Ходжа Абдухалик Гиждувони (первая четверть XII века — 1220), Ходжа Бахоуддин Накшбанд (1318—1389), Суфи Оллоёр (1644—1721) и др.

13. Баскаков Н.А. Введение в изучение тюркских языков. — М., 2009. – С.34.

Akram Hamdamov,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi

MILLIY TILNING JOZIBASI

Abdulla Oripov xalqning beqiyos adabiy durdonalariga tayanib, badiiy mukammal asarlar yaratdi. Ulardagi xalqona pafos va badiiy mukammallik folklor asarlarining estetik qiymatidan aslo kam emas. Boshidan oxirigacha xalqona ruh bilan sug'orilgan ko'pgina she'rlarining zaminida yengil kulgi, nim tabassum, ba'zan o'tkir qochiriq va kinoyalar yashiringan bo'ladi.

Millatning o'ziga xos fazilatlarini ifodalovchi xalqona ohanglarda yaratilgan ana shunday asarlardan biri "Samoviy mehmon, besh donishmad va farrosh kampir qissasi"dir. She'rda ifodalanishiga ko'ra, qilni qirq yoradigan donishmandlar dunyo tillarini besh barmoqday bilishsa-da, ammo samoviy mehmon oldida ular ojiz.

Aniqrog'i, Abdulla Oripov she'rda xalq tilida mashhur bo'lgan "Yaxshi gap bilan ilon inidan chiqadi, yomon gap bilan pichoq qinidan chiqadi" maqoliga ishora qiladi. Bu botiniy vositadan ustalik bilan badiiy foydalangan. She'rning sarlavhasidan ko'rinib turibdiki, badiiy maqsad bir - biriga mutlaqo o'xshamagan asar qahramonlari: 1) samoviy mehmon, 2) besh donishmand, 3) farrosh kampir va ularning xatti-harakatlari orqali hal etilishi lozim. She'r "Xabar keldi Fan shahriga olis Jungli tomondan. O'tgan kecha allanarsa Yonib tushmish osmondan" degan fantastik xabar bilan boshlanadi. Undan keyin besh donishmandning izchil ta'rifi beriladi. Oxirida esa, istar-istamas "Hatto farrosh kampirni ham birga olib keldilar" deb qo'shib qo'yiladi. Aslida, yozuvchining badiiy maqsadi ana shu farrosh kampir faoliyati orqali ochib berilishi lozim edi. Bu "sir"ni shoir asarning oxirigacha o'quvchidan yashirib keladi. She'rni shunday tugatadi: "Olimlarning

xizmatlari Yo'q, bekorga ketmabdi. Shuncha ishni qilishibdi, Faqat mehr yetmabdi".

Asarni o'qib bo'lgach, yuksak mahorat bilan tasvirlangan samoviy mehmon haqidagi fantastik ma'lumotlar ham, besh donishmandning har qanday kishini lol qoldiradigan ish - faoliyati ham, birdan, arzimas bir narsaga aylanib qolgandek tuyula boshlaydi... Asarda farrosh kampir paydo bo'lishi bilan ifoda tili ham tubdan o'zgaradi. Tasvirda jonli xalq tili, xalq og'zaki ijodiga xos ifodalar yetakchilik qila boshlaydi: "O'sha payt, deng farrosh kampir kirib keldi tentirab. Farrosh-da u, uni - buni yig'ishtirmoq unga tan. O'rindiqa yotgan zotni ko'rди kampir daf'atan!" Ana shu qisqacha ekspozitsiyadan so'ng farrosh kampirning favqulodda nutqi - o'zbek kampirlariga xos tabiiy mehribonlikni ifodalovchi so'zlarida milliy o'ziga xos mehr tuyg'usi namoyon bo'ladi:

- Voy bechora bolaginam,

Dard zabtiga opti-ku!

Holdan toyib, boshqa ko'zi

Yumilib ham qopdi - ku!

Shoir nazdida so'zda mehr, shafqat, insoniylik tuyg'ulari - kechinmalari ifodalansagina til to'laqonli va tom ma'noda muloqot va muomala ehtiyojini qondira oladi. Bu o'rinda shoir tildan ko'ra ruhga ustuvor mavqe beradi. Bu oddiygina farrosh kampir nutqida mujassamlashgan. Demak, farrosh kampir obrazida shoir til va dil munosabatida ruhning ustuvorligiga e'tiborni tortadi. She'rning yana bir fazilati ruhan xalq og'zaki an'analariga bog'lanishidir. Shoirning shu kabi xalqona poetik tafakkur negizida yaratilgan she'rlarida ruh va til, inson nutqi va ruhiyati tushunchalari o'zaro uyg'unlashib ketadi.

Rangini ko'r, somon deysan,

Suvdanmikan yo o'tdan!

Bu nutqda barcha o'zbek ayollariga xos o'zbekona milliy mehr-muhabbatning mumtoz namunasi o'z ifodasini topgan. Ushbu nutqiy xarakteristika orqali shoir farrosh kampirning milliy fazilatlarini sirasiga kiruvchi qiyofasini yuksak badiiy

mahorat bilan chizib beradi. Bu nutqiy parchada jonli xalq tiliga xos ko'plab badiiy vositalar ("Dard zabtiga opti-kul", " "Rangini ko'r somon deysan", "Suvdanmikan yo o'tdan!") qo'llaniladi. Bu shoirning xalq poetik tili xazinasini juda yaxshi bilishi, undan san'atkorona foydalana olishidan darak beradi. Nutqiy xarakteristikadan keyin farrosh kampirning xatti-harakatlarini, uslub yo'nalishini o'zgartirmagan holda, shoirning o'zi tasvirlashni davom ettiradi: "Azbaroyi mehr bilan Boshginasin siladi. Tikandayin tikka o'sgan sochginasin siladi. Kampir bilmas, kim bu mahluq, Yo bilsa ham unutdi. Icha qolgin, jon bolam, deb Hatto unga suv tutdi" [I, 305-bet].

Farrosh kampirning mehr bilan to'lib-toshgan bu harakatlari asta-sekin o'z samarasini bera boshlaydi: "O'shanda deng, haligining qon chopdi-ya yuziga. Duvva-duvva yosh ham keldi Bittagina ko'ziga... Aylantirib bitta ko'zin Boqdi u yoq-bu yoqqa. Bir mahal deng, dab-durustdan Mehmon turdi oyoqqa" [I, 305-bet]. Faqat farrosh kampirning qiyofasi, nutqi va harakatlarigina emas, "...Farrosh kampir qissasi"ning matni to'laligicha xalq tilida, milliy ohangda yaratilgan. Besh qit'adan yig'ib kelingan beshta tengsiz olimning badiiy tasvirida bironta ham ilmiy-texnikaviy termin yoki ibora ishlatilmagan. Aksincha, besh barmoqday biladi, qushlar tilin biladi, xandon suhbat qiladi kabi xalq tilida sayqal topgan va davr sinovlaridan o'tib kelayotgan asl milliy iboralar qo'llanilgan.

Xalq tilining asosiy belgilaridan biri – uning yumorga boyligidir. O'zbek xalqi quvonchli damlarida ham, oddiy kunlarida ham, hatto g'amgin paytlarida ham hazil-mutoyibasiz yashay olmaydi. Bu fazilat "...Farrosh kampir qissasi"da ham yorqin namoyon bo'ladi. Asarning boshidayoq besh qit'adan yig'ib kelingan nufuzli delegatsiya tarkibiga farrosh kampirning kiritilishidan ("Hatto farrosh kampirni ham Birga olib keldilar") yengil kulgi uyg'onadi. Asarning oxirida ham o'sha farrosh kampir kulgiga sababchi bo'ladi:

Farroshlarning yulduzidan

Tushdimikan yo mehmon. [1, 305-bet].

Bu kulgi endi “yengil kulgi” emas, qudratli kulgi edi, buning ustiga, besh donishmand ma’naviyatidagi “kemtik” ustidan kulish edi:

Olimlarning xizmatlari

Yo‘q, bekorga ketmapti,

Shuncha ishni qilishipti,

Faqat Mehr yetmapti. [1, 306-bet].

Mehr tuyg‘usini yo‘qotish – inson uchun mudhish holat. Bu esa bir vaqtning o‘zida tilda ham o‘z aksini topadi. Xususan, ijodkor til va ruhning dialektik yaxlitilagini ta’kidlaydi. Tildan ajralgan ruh yoki ruhdan ajralgan tilning holati mehr tuyg‘usini his etmagan besh donishmandga qiyoslanadi. Xalqchillikning badiiy ifodasiga aylangan “Farrosh kampir” she’ri adabiyotimiz xazinasini boyituvchi yuksak milliy asar namunasi sifatida qolajak.

Abdulla Oripov ijodida til va ruhning omuxtaligi falsafiy yo‘sinda yuksak badiiy shakllarda namoyon bo‘ladi. Masalan, tilni o‘zlashtirish va undan foydalanish ham mumkin. Biroq faylasuflar til o‘rganishni o‘sha tilning ruhini o‘rganishdan boshlash lozimligini uqtirishadi. Ruhiyatdan xoli til bamisoli jonsiz tana. Bunda til funksiyasi torayib bir yoqlama bo‘lib qoladi. Boshqacha aytganda, til uning zamiridagi dil aksi bilan jonlidir. Adabiyotshunos T.Boboev:“...ijodkor xalq dilining haqiqiy tarjimoni bo‘lsagina uning asarlari tilida xalqchillik aniq sezilib turadi”. {2.160-bet} deb ta’kidlagan edi. Darhaqiqat, tilga hurmat-ehtirom xalqchillikning alohida ko‘rinishidir. U milliy mahdudlikni keltirib chiqarmasligi, milliylik umuminsoniylikka, umumbashariy manfaatlarga to‘siq bo‘lmasligi kerak. Ulug‘ ajdodlarimizdan o‘zga tillarga hurmat o‘zga xalqlarga hurmat ramzi ekanligi muqaddas meros tuyg‘u sifatida saqlanib kelmoqda. Milliylik va baynalmilallik bir-birini taqozo etuvchi tushunchalardir. Shu

boisdan keyingi o'n yilliklarda, to'g'rirog'i, mamlakatda qayta qurish va yangilanish shabadalari esa boshlagan, ayniqsa, O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyingi davrda xalq tilida erkin so'zlash imkoni vujudga keldi.

Abdulla Oripovning o'z she'rlari bilan ona tilimizning go'zalligini yuzaga chiqarish uchun ham amaliy, ham nazariy jihatdan ulkan ziyoli shaxs sifatida faol bo'lganini ko'ramiz. Uning o'z ona tiliga bo'lgan cheksiz hurmat-ehtiromi asarlaridagi xalqona ruhidan seziladi. Qolaversa, shoir she'rlarida qo'llagan xalqona ta'birlar, original yasalgan so'zlar, qadim mumtoz asarlardan olingan so'zlarni, shevaga xos so'zlarni o'z o'rnida qo'llash, betakror o'xshatishlar shoir she'rlarining til badiiyatini namoyon etadi.

Haqiqiy ijodkor ona tilida jaranglagan so'z orqali kindik qoni to'kilgan tuproq bilan, ona xalqi bilan samimiy muloqotga kirishadi. Undan ruhiy-ma'naviy quvvat oladi. Shoir xalqona badiiy tafakkurida badiylikning bosh mezonlaridan biri sanalguvchi badiiy til jozibasi, jonli xalq tilining butun go'zalligi yetakchilik qiladi

Xulosa qilib aytganda, jonli xalq tili xazinalaridan unimli foydalanib, ma'naviy ekologiya sodda va buyuk qahramoni – farrosh kampir obrazini yaratdi. Farrosh kampir obrazi Abdulla Oripov ijodida xalq sevgan eng go'zal obrazlardan biri bo'lib qoldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar. To'rt jildlik. 1-jild. - Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2000. - B.62 (Boshqa ko'chirmalar ham shu manbadan olinadi va sahifasi qavs ichida berib boriladi).

2. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. Oliy ta'lim darsligi. -Toshkent: O'zbekiston, 2002.-B. 160.

3. Nazarov B. Abdulla Oripov. // O'zbek sovet adabiyoti tarixi. - Toshkent: O'qituvchi, 1990.- B.443.

4. G'afurov I. Yam-yashil daraxt. - Toshkent, 1996. - B.221.

Nilufar Xodjayeve,

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti dotsenti, PhD

Farhod Eliboyev,

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti mustaqil
tadqiqotchisi

**SUD-TERGOV FAOLIYATIGA OID YURIDIK TERMINLARNI
TARJIMA QILISHDA UCHRAYDIGAN AYRIM MUAMMOLAR
(O'ZBEK VA INGLIZ TILLARI MISOLIDA)**

Yuridik til huquqiy sohalarning turli yo'nalishlarini qamrab olib, unda tor doiradagi ixtisoslashtirilgan maxsus so'z birikmalari, iboralar va terminlardan keng foydalaniladi. Yuridik tarjima esa yurisprudensiyaga oid matnning boshqa tilga tarjima qilinishini nazarda tutadi. Shakl va mazmun nuqtai nazaridan, huquqiy sohaga doir turli xil matnlar mavjud bo'lib, barchasiga xos umumiy xususiyat ularning ma'lum bir davlatning huquqiy tizimida amalda bo'lgan buyruqlar, farmoyishlar va boshqa yuridik hujjatlardagi axborotni o'zida bevosita yoki ma'lum darajada aks ettirishi bilan izohlanadi. Yuridik hujjat tayyorlashda o'ziga xos uslub qo'llanilib, matnning mantiqiy jihatdan izchil, aniq va to'g'ri bo'lishi, ta'riflarda oddiylik va bir xillik prinsipiga rioya etish talab etiladi. Shuningdek, yuridik matnlarning tarkibiy qismi maxsus yuridik terminlardan tashkil topganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Demak, yuridik terminlar yuridik texnika elementi, davlatning normativ-huquqiy ko'rsatmalari bilan mustahkamlanadigan davlat va huquqqa oid tushunchalarning ifodasi hisoblanadi. Ularni shartli ravishda umumiy, maxsus va maxsus-texnikaviy terminlar sifatida uch turga bo'lish mumkin. Shu bilan birga, yuridik terminlardan foydalanishda ayni bir terminning normativ hujjatlarda bir xilda qo'llanilishi, barcha tomonidan tan olinishi, ya'ni ularning huquqiy ko'rsatmalarni ishlab chiqqan mutaxassislar topilmasi bo'lmay, balki kundalik

hayotda ishlatilishi, barqaror xususiyatga ega bo'lishi, har bir huquqiy hujjatda o'zining maxsus mazmunini saqlab qolishi talab etiladi.

Huquq sohasiga oid matnlarni yaratishda yuridik terminlarning o'ziga xos murakkab tizimidan foydalanilishi bois, ularni soha mutaxassislarigina to'liq anglab yetishlari mumkin. Ushbu terminlar bevosita normativ-huquqiy hujjatlarning asosini tashkil etuvchi, tushunarli va aniq ma'noga ega bo'lgan atamalar, shuningdek, yuridik matnda so'zning umumiy ma'nosidan farq qiluvchi maxsus ma'noga ega so'z va iboralarni o'z ichiga oladi.

Ma'lum bir davlatning huquq tizimida amaliyotda bo'lgan va unda mavjud prinsiplar asosida shakllantirilgan yuridik hujjatlarni mazkur tizimga xos maxsus terminlar hamda ta'riflash usullaridan foydalangan holda xorijiy tilga tarjima qilishdagi eng muhim vazifa tarjimaning asliyatga shakl va mazmun jihatdan adekvatligini ta'minlashdir. Tabiiyki, bunday aniqlikka erishishda tarjimondan ona tili bilan bir qatorda, matn tarjima qilinayotgan xorijiy tilning yuridik terminologiyasi bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lish talab etiladi. Chunki davlatlar turlicha huquq tizimlariga ega bo'lib, ularda qo'llaniladigan yuridik til o'ziga xos terminologiyasi bilan bir-biridan farq qiladi.

Yuridik terminlarning ma'lum bir davlat huquq tizimida paydo bo'lishi va amaliyotga kiritilishi o'sha davlat huquqiy tizimi rivojlanishining tarixiy-madaniy

xususiyatlari bilan bog'liq jarayon ekanligini mutaxassislar o'z ilmiy manbalarida ko'p bora ta'kidlaganlar. Tarjimon bunday terminlarni asliyat tilidan o'girar ekan, tarjima tilida aynan shu terminlarga ekvivalent hisoblangan yuridik terminlarni topishda ma'lum qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Bular asosan asliyat tiliga xos muayyan huquqiy tushunchalarning tarjima tili huquq tizimida mavjud emasligi bilan bog'liq muammolar bo'lib, aksariyat hollarda tarjima qilingan yuridik

hujjatning noto'g'ri talqin qilinishiga olib keladi. Tarjimada leksik ekvivalentlik muammosidan tashqari, sohaga oid matnlarni yaratishda qo'llaniladigan shakl va strukturalarga oid nomutanosibliklar ham mavjud bo'lib, ular o'z navbatida, ushbu konstruksiyalar mazmunini adekvat ravishda o'girish imkonini beruvchi muqobil variantlarni tanlashda ma'lum qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi, oqibatda, tarjimon eng universal tarjima usuli sanalgan tasviriy tarjimaga murojaat qiladi. arjimon ushbu tarjima usulidan foydalanar ekan, aksariyat hollarda asliyat matn shaklini emas, faqatgina uning mazmunini tarjima tiliga to'liq o'girish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shuningdek, asliyat tilining o'zida ham sohaga oid terminlarning huquqiy amaliyotda qo'llanilishi bilan bog'liq muammolar mavjudligi yuridik hujjatlarni boshka tillarga o'girishda yuzaga keladigan qiyinchiliklarning asosiy omili sanaladi. Masalan, Sh.N.Kuchimov o'zbek tilida qo'llaniluvchi yuridik terminlar bilan bog'liq muammolarni quyidagi 4 guruhga ajratadi:

1) yuridik terminlarda shakl va mazmunning o'zaro nomutanosiblik muammosi;

2) bir huquqiy tushunchaning turli nomlar bilan yuritilishi muammosi (yuridik terminlarda sinonimiya muammosi);

3) bir yuridik terminning xilma-xil yoki bir-biriga yaqin tushunchalarni ifodalashi muammosi (yuridik terminlarda omonimiya va polisemiya muammosi);

4) mavjud yuridik terminlarning noto'g'ri qo'llanilish holatlari.

Fikrimizning dalili sifatida O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi bilan uning ingliz tiliga o'girilib, Internet tarmog'iga joylangan norasmiy tarjimasi matnida ko'p takrorlanadigan "act" ("qilmish") va "action" ("harakat") tushunchalari misolida tahlil qilib chiqsak:

65-modda. Qilmish yoki shaxs ijtimoiy xavfliligini yo'qotganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish

Ishni tergov qilish yoki sudda ko'rish vaqtida sharoit o'zgarganligi tufayli sodir etilgan qilmish o'zining ijtimoiy xavfliligini yo'qotgan deb topilsa, jinoyat sodir etgan shaxs javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin.

Article 65. Discharge from Criminal Liability due to Loss of Socially Dangerous Nature by Act or by Person Who Committed Thereof a person, who committed a crime, may be discharged from criminal liability, in the instance if it is recognized that by the time of investigation or trial, due to certain changes, the action committed has lost its socially dangerous nature.

Bir qarashda mazkur moddaning asliyat matni orqali uzatilayotgan axborot tarjimada tiliga shakl va mazmun jihatdan adekvat tarzda o'g'irilganini ko'ramiz. Shu bilan birga, asliyat matnidagi moddaning nomlanishi va bevosita modda tarkibida qo'llanilgan "qilmish" tushunchasi ingliz tiliga umumiy qo'llanilishi jihatidan biri-biriga sinonim hisoblanadigan "act" va "action" so'zlari orqali tarjima qilingan. Vaholanki, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining sakkizinchi bo'limida keltirilgan izohlarga ko'ra "qilmish - harakat yoki harakatsizlik" va "harakat - shaxsning ijtimoiy xavfli, ongli va faol xulq-atvori" deb ta'riflangan. O'z navbatida, "qilmish" tushunchasi tarjima matnida "act - action or inaction tarzida, "harakat" tushunchasi esa "action - socially dangerous, willful and active conduct of a person" deb izohlangan. Vaholanki, yuridik terminologiya nuqtai nazaridan ushbu terminlar asliyat tili, ya'ni o'zbek tilida berilgan izohiga ko'ra semantik jihatdan bir-biridan farq qiluvchi huquqiy tushunchalarni ifodalaydi. Bu o'rinda o'zbek tilidagi "qilmish" tushunchasini ingliz tiliga tarjima qilishda "act" atamasidan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Shuningdek, Jinoyat kodeksining quyida keltirilgan moddasida "harakat" terminining ko'plik shakli ingliz tiliga "actions" atamasi bilan emas, balki "acts" co'zi orqali o'g'irilganiga guvoh bo'lamiz:

161-modda. Qo'poruvchilik, ya'ni O'zbekiston Respublikasining davlat organlari faoliyati yoki ijtimoiy-siyosiy vaziyatning barqarorligiga yoki iqtisodiyotiga putur yetkazish maqsadida odamlarni qirib yuborish, ularning sog'lig'iga ziyon, mulkka shikast yetkazish yoki uni nobud qilishga qaratilgan harakatlar - o'n yildan yigirma yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Article 161. Sabotage

Sabotage, that is, acts aimed at destruction of people, causing harm to people's health, damage or destruction of property with the purpose of destabilization of the performance of state bodies or of sociopolitical situation or undermining the economy of the Republic of Uzbekistan - shall be punished with imprisonment from ten to twenty years. Jinoyat kodeksining ingliz tiliga o'girilgan variantida mazkur hujjat matnida ko'p qo'llaniladigan yuridik terminlar izohi mavjud bo'lishiga qaramasdan, yuqoridagi singari sinonimiya muammosiga aloqador misollar talaygina. Masalan, asliyat tilida berilgan moddalarda bir xil ma'noni anglatuvchi tushunchalar, xususan aybli deb topilish - be found guilty, be recognized guilty, ehtiyotsizlik oqibatida (orqasida) sodir etmoq - commit unintentionally, reklessly kabi terminologik birikmalarning turlicha tarjima qilingan variantlarini ko'rishimiz mumkin.

Yuridik terminlarni asliyat tilidan tarjima tiliga o'girish jarayonida ko'p ucharaydigan sinonimiya yoki bir yuridik terminning xilma-xil, bir-biriga yaqin tushunchalarni ifodalashi, ya'ni omonimiya va polisemiya muammolari O'zbekiston Respublikasi protsesual kodeksining ingliz tiliga o'girilgan va Internet tarmog'iga joylangan norasmiy variantlarida ham mavjud. Bu, asosan, Jinoyat-protsessual kodeksining aksariyat moddalarida keng qo'llaniladigan "qaror", "ajrim", "hukm" kabi yuridik terminlar tarjimasida so'zga tashlanadi. Masalan, Jinoyat-protsessual kodeksining

45-moddasida “ayblanuvchi” tushunchasiga nisbatan o‘zbek tilida berilgan ta’rifning ingliz tiliga o‘girilgan variantlarida terminlarni qo‘llash borasidagi turlicha yondashuv kuzatiladi. Mazkur moddada qo‘llanilgan “qaror” atamasi bir o‘rinda “resolution”, ikkinchi o‘rinda esa “ruling” deb tarjima qilingan. Albatta, har ikki termin yuridik matnlarda ma’no jihatdan “qaror” so‘ziga mos keladi. Biroq, protsessual hujjatlarda bu huquqiy tushunchani “resolution” atamasi bilan berish nazarimizda xato hisoblanadi. Buni izohli lug‘atlarda “resolution” so‘ziga berilgan ta’riflardan ham ko‘rish mumkin. Oxford Advanced Learner’s Dictionary lug‘atida mazkur atamaga “...a formal statement of an opinion agreed on by a committee or a council, especially by means of a vote” ya’ni “...biron bir qo‘mita yoxud kengashda asosan ovoz berish yo‘li orqali ma’lum bir fikr yuzasidan erishilgan kelishuvning rasmiy bayonoti” (tarjima bizniki - F.Elboyev) degan ta’rif berilgan bo‘lsa, “ruling” atamasi “...an official decision made by somebody in a position of authority, especially a judge” ya’ni “... biron bir vakolatga ega shaxs, xususan, sudya tomonidan qabul qilinadigan rasmiy qaror (ajrim)” (tarjima bizniki - F.Elboyev) deb izohlangan. Anglashiladiki, ingliz tilidagi “resolution” co‘zi o‘zbek tilidagi protsessual hujjatlarda qo‘llaniladigan “qaror” atamasiga semantik jihatdan ekvivalent bo‘la olmaydi. “Ruling” atamasini esa ushbu kontekstda asliyat tilidagi “qaror” tushunchasiga muqobil variant sifatida qo‘llash mumkin. Shuningdek, ayni moddada qo‘llanilgan “hukm” atamasi ham ingliz tiliga o‘girilgan matnlarning birinchi variantida “judgement”, ikkinchisida esa “sentence” terminlaridan foydalanilgan holda tarjima qilingan. Oxford Advanced Learner’s Dictionary lug‘atida “judgement” terminining huquqiy matnlarda qo‘llanilishi bo‘yicha “...the decision of a court or a judge” - “sud yoxud sudya qarori/hukmi” deb ta’rif berilgan bo‘lsa, “sentence” termini “...the punishment given by a court” - “...sud tomonidan beriladigan jazo” deb izohlangan.

Shu o'rinda O'zbekiston yuridik ensiklopediyasida "hukm" tushunchasiga berilgan ta'rifga e'tibor qaratsak: hukm - jinoyat ishini mazmunan ko'rib chiqqan birinchi instansiya yoki appelyatsiya instansiyasi sudining sudlanuvchining aybdor yoki aybdor emasligini, unga jazo tayinlash yoki tayinlamaslik qarori. O'z-o'zidan ko'rinadiki, mazkur kontekstda "hukm" tushunchasiga mazmun jihatdan "sentence" emas, balki "judgement" termini muvofiq keladi. Chunki hukmda jazo tayinlanishi ham tayinlanmasligi ham mumkin. Tarjima matnida kelgan "sentence" atamasi esa hukmda ma'lum bir jazo turi belgilanganini nazarda tutadi. Shunga asoslanib, Jinoyat-protsessual kodeksi 45-moddasining ingliz tiliga o'girilgan variantlarida aslyat tilidagi huquqiy tushunchalarning ekvivalentlari to'g'ri tanlangan deb bo'lmaydi. Qolaversa, Jinoyat-protsessual kodeksining ingliz tiliga o'girilgan ayni variantida "hukm" tushunchasi turli moddalarda "conviction" hamda "verdict" terminlari orqali ham ifodalangan. Bu esa tarjima matnining til sohiblari tomonidan turlicha talqin qilinishiga sabab bo'lishi mumkin.

Boshqa misol:

45-modda. Ayblanuvchi

Ayblanuvchi ushbu Kodeksda belgilangan tartibda ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilinishi haqida qaror chiqarilgan shaxsdir.

Ayblanuvchi sudda sudlanuvchi deb, hukm chiqarilganidan keyin esa, mahkum yoki oqlangan deb ataladi.

Quyida mazkur moddaning turli tarjima variantlari keltirilgan:

Article 45. Accused

The accused is a person, with regard to whom a resolution on recognition him as an accused in the case was rendered in accordance with the procedure prescribed by the present Code.

The accused shall be called the defendant at the court

hearing, whereas after passing a judgment he shall be called the convicted or the acquitted [person].

Article 45. Accused

A person shall be recognized as an accused if in his regard, in the order envisaged by this Code, a ruling has been rendered to prosecute him as an accused.

An accused whose criminal case has been set for a trial shall be referred to as a defendant, whereas after the sentence he shall be referred to as a convicted or an acquitted person.

Yuqorida bayon etilgan fikrlar O'zbekiston Respublikasi Jinoyat va Jinoyat-protsessual kodekslarining ingliz tiliga o'girilgan variantlarida mazkur yuridik terminlarning qo'llanilish ko'lamini yuzasidan amalga oshirilgan quyidagi statistik tahlil natijalarida ham o'z tasdig'ini topgan.

Jinoyat kodeksining ingliz tiliga o'girilgan variantidagi moddalarda "qilmish" atamasi 152 marotaba "act" yoki "acts" deb tarjima qilingan bo'lsa, 24 marotaba "action" yoki "actions" sifatida berilgan.

Jinoyat-protsessual kodeksining ingliz tiliga o'girilgan 1-variantida aslyatdagi "qaror" atamasiga nisbatan 374 marotaba "resolution" so'zi qo'llanilgan bo'lsa, "ajrim" tushunchasi 538 marotaba "ruling" deb tarjima qilingan.

Jinoyat-protsessual kodeksining ingliz tiliga o'girilgan 2-variantida esa "qaror" 254 marotaba "resolution" sifatida, 97 marotaba "ruling" sifatida tarjima qilingan. Shuningdek, "ajrim" tushunchasi mazkur variantda "finding" (392 bor) deb tarjima qilingan.

Bundan tashqari, Jinoyat-protsessual kodeksining ingliz tiliga o'girilgan 1-variantida "hukm" tushunchasi 133 marotaba "judgement", 83 marotaba "sentence" va 76 marotaba "verdict" deb tarjima qilingan.

Jinoyat-protsessual kodeksining ingliz tiliga o'girilgan 2-variantida "hukm" tushunchasi to'liq "sentence" (400 marta) sifatida tarjima qilingan.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, sud-protsessual

jarayonlarda tayyorlanadigan o'zbek tilidagi hujjatlarning ingliz tiliga tarjima qilinishi hamda terminlarning muqobil variantlaridan tanlanishida ikki va ko'ptilli lug'atlardan foydalanish tarjimonning ishini ma'lum ma'noda osonlashtiradi. Biroq yuridik terminlarga xos sinonimiya, omonimiya va polisemiya bilan bog'liq muammolar yuzaga kelganda tarjimondan asliyat va tarjima tilidagi izohli lug'atlarga murojaat qilish va tegishli terminlarga nisbatdan keltirilgan ta'riflarning ma'lum bir kontekstda qo'llanilish holatlarini o'rganish hamda ikki tilda berilgan ta'riflarni qiyosiy tahlil qilgan holda terminlarning shakl va mazmun jihatdan mos keladigan muqobil variantlarini tanlashi talab etiladi. Muqobil variantlari mavjud bo'lmagan taqdirda esa, tarjimon tasviriy tarjima usulidan foydalanish bilan cheklanadi. Shu nuqtai nazardan, ikki va uch tilli lug'atlarda asliyat tilidagi yuridik terminlarning tarjima tilidagi ekvivalentlari bilan bir qatorda, har bir atamaning izohi hamda uning aniq bir kontekstda qo'llanilishi bo'yicha misollar keltirilishi lozim. Ayni paytda yuridik terminologiya sohasiga oid bunday izohli lug'atlar o'zbek tilida mavjud emas. Fikrimizcha, o'zbek va ingliz tillaridagi yuridik terminlarning qo'llanilishiga doir izohli lug'atning yaratilishi tarjima bilan shug'ullanuvchi mutaxassislarning yuridik hujjatlarni to'g'ri tarjima qilishida, to'g'ri ekvivalentlarni tanlashida asosiy manba sifatida xizmat qiladi. Eng muhimi, tarjimaga sarflanadigan vaqt sezilarli darajada kamayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Oxford Advanced Learner's Dictionary of Current English. 8th Edition. E-version.

2. Nesterovich V.M. Проблемы перевода юридических терминов // Право и управление. - 2011. №2 (19).

3. Sh.N. Kuchimov. O'zbek tilining yuridik terminologiyasi: muammo va yechimlar // Yuridik fanlar abxorotnomasi. - UDS:811.512.139(042)(575.1) - 2020.

4. Yuridik ensiklopediya. - T.: Sharq, 2001.

5. https://vertic.org/media/National%20Legislation/Uzbekistan/UZ_Criminal_Code.pdf
6. https://vertic.org/media/National%20Legislation/Uzbekistan/UZ_Criminal_Procedure_Code.pdf.
7. Lex.uz/docs/111453

Diloromxon Ismoilova,

Renessans ta'lim universiteti katta o'qituvchisi,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

HUQUQIY TERMINOLOGIYANING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

«Yuridik tilni o'rganish huquq dunyosidagi bilimlarni egallash uchun muhim ko'prik vazifasini bajaradi. Yuridik terminologiya huquq tilining asosiy qismini tashkil qilgani sababli, uning tushunarli, aniq va tizimlashtirilgan bo'lishi zarur» deydi tadqiqotchilar. Soha terminologiyasining rivoji va uni turli tillarda o'qitish, shuningdek, qiyosiy tadqiqotlar qilish ehtiyoji o'sib bormoqda. Terminlarning lingvistik xususiyatlari va ularni tasniflash usullari haqida ko'plab fikrlar mavjud. O'zbek tili harbiy terminologiyasini o'rganadigan H.Yodgorov o'zbek tilida hali to'liq o'rganilmagan ko'plab terminologik tizimlar mavjudligini ta'kidlaydi. Xususan, yuridik terminlar va ularning tasnifi bo'yicha tadqiqotlar M.Qosimova, Sh.Ko'chimov va G.G'ulomova tomonidan amalga oshirilgan bo'lsa-da, bu sohaning lingvomadaniy jihatlarini to'liq qamrab olgan ishlar hali mavjud emas. Ingliz va o'zbek tillaridagi yuridik terminlar nafaqat huquqshunoslikda, balki boshqa sohalarida ham integratsiyalashgan holda qo'llaniladi.

Terminlarning semantik xususiyatlarini tahlil qilish zaruriyati, shuningdek, yuridik terminologiyaning tilshunoslik va huquqshunoslik sohalarida o'sishi bilan bog'liq. P.Tomas, T.Kabre va J.Sagerlarning ta'kidlashicha, terminologiya faqat bir fan tarmog'ini qamrab oluvchi so'zlar to'plamidan iborat emas, balki uning mazmuni ham muhim ahamiyatga ega. Rus olimi S.Vinogradov esa terminlarning aniq ma'nolarini tahlil qilish zarurligini ta'kidlagan.

Xususan, o'zbek tillaridagi jinoyatga oid terminologiyaga oid ilmiy tadqiqotlar hali ham yetarlicha rivojlanmagan. «Jinoyat» ma'nosidagi terminlar yuridik terminologiyaning

bir qismi sifatida rasmiy, aniq va bitta ma'nolilikka ega. Bu soha terminlari ikki turga bo'linadi:

1. Faqat huquqshunoslik doirasida ishlatiladigan terminlar, masalan, larceny, misdemeanor, torture, offender.

2. Barcha tilda so'zlovchilar nutqida qo'llaniladigan terminlar, masalan, crime, assault, robbery, bribery, kidnapping.

O'zbek tilida jinoyat semantikasi turli xususiyatlarga ega bo'lib, ba'zi hollarda umumiy so'z va yuridik atama bir vaqtning o'zida mavjud bo'ladi. Bu holatda, terminlar ilmiylik va qat'iylikni anglatadi, oddiy so'zlar esa ko'proq tushunarli va sodda bo'ladi.

O'zbek tilida jinoyat semantikali lug'aviy birliklar bir paytda umumiste'moldagi so'z va huquqiy atama bo'la oladi. Quyidagi jadvalda oddiy so'z va terminning semantik mundarijasidagi farqlar ko'rsatib berilgan.

Leksema va terminning semantik mundarijasi

	Umumiste'moldagi so'z	Huquqiy termin
<i>Ko'chirmakashlik</i>	o'zganing ishini ko'chirib olish	tafakkur mulki obyektiga nisbatan mualliflik huquqini o'ziga olish
<i>Tuhmat</i>	birovni asossiz ayblash yoki qoralash	atayin o'zga shaxsni g'arazli maqsadlarda sharmanda qiladigan uydirmalar tarqatish

Huquqiy terminlar tasnifida har bir davlatning huquq tizimi katta ahamiyatga ega, chunki terminlarning ma'nosi va ularga qo'llaniladigan yuridik tushunchalar davlatning huquqiy tizimiga bog'liq bo'ladi.

«Jinoyat» semantik maydoni bir butun sifatida turli

qismlarga ajraladi. Dunyo tillaridagi jinoyatchilikka oid hujjatlarda jinoyatni tasniflashga asoslangan terminlar, o'zida muhim lingvomadaniy xususiyatlarni mujassamlashtiradi.

Milliy huquq terminologiyasida jinoyatlarning darajasi bo'yicha tasniflashda yangi terminlar yaratish o'rniga, «jinoyat» termini asosida tarkibiy terminlar hosil qilingan. Bu terminlar orasida ijtimoiy xavfi kam bo'lgan jinoyatlar, uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar, og'ir jinoyatlar va o'ta og'ir jinoyatlar mavjud bo'lib, ular har xil davlatlarning huquqiy tasniflarida farq qiladi. Bu esa, o'z navbatida, ularning semantik xususiyatlarida ham o'z aksini topadi. Masalan, ijtimoiy xavfi kam bo'lgan jinoyatlar uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi qo'llaniladigan jinoyatlarni anglatadi, ehtiyotsizlik tufayli sodir bo'lgan va besh yildan ortiq bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi belgilangan jinoyatlar esa boshqa bir guruhni tashkil etadi. Shunday qilib, o'zbek huquq terminologiyasidagi jinoyatlarni tasniflovchi terminlar faqat jazo muddati bilan emas, balki jinoyatning qasddan yoki ehtiyotsizlik sababli sodir etilganligi bilan ham tavsiflanadi. Yuqoridagi terminlar shu asosda nomlanadi.

Xulosa qilish mumkinki, har bir tilda jinoyatga oid terminologiya o'z madaniyati, huquq tizimi va tarixiy sharoitlariga mos ravishda farqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ko'chimov Sh. Huquqiy normalarni o'zbek tilida ifodalashning ilmiy-nazariy muammolari: Filol. fanl. dokt. ... diss. – Toshkent, 2004. – B.19.

2. Abdullayeva F. Yuridik terminlarni o'qitishning lingvodidaktik asoslarini takomillashtirish: Filol. fanl. bo'y. fals. dokt. ... diss. – Toshkent, 2018. – B.4.

3. Yodgorov N. O'zbek tili harbiy terminologiyasining sinxronik tadqiqi: Filol. fanl. nomz. ... diss. – Toshkent, 2020.

Rasuljon Tojimatov,

University of Business and Science

nodavlat oliy ta'lim muassasasi

Til va adabiyot ta'limi kafedrası katta o'qituvchisi,

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

SHE'RIY MATN LINGVOPOETIK TAHLILINING ASOSIY TUSHUNCHALARI VA NAZARIY MANBALARI

Keyingi yillarda badiiy so'z qudratini, badiiy asar mazmun-mohiyatini kitobxonga yetkazishda muallifning so'z qo'llash mahorati va o'ziga xos yondashuvlarini ochib berishda lingvopoetika sohasining o'rni muhim sanalmoqda. Lingvopoetika, Abdurauf Fitrat ta'riflaganday: "...fikir, tuyg'ularimizdagi to'lqunlarni so'zlar, gaplar yordami bilan tasvir qilib, boshqalarda ham shu to'lqunlarni yaratmoq⁵⁵" vazifasini bajaruvchi adabiyotning nafis so'z qo'llash san'ati ekanligini yana bir bor isbotlovchi, badiiy matnda qo'llanga har bir sintaktik birlik, so'z, qo'shimcha, bo'g'in va tovushning ma'no jilolarini tadqiq etuvchi soha sifatida bugungi kunda taraqqiy etib bormoqda. Bi sohada o'zbek tilshunosligida N.Mahmudov, A.Nurmonov tamal toshlarini qo'ygan bo'lsalar, M.Yuldashevning tadqiqotlari, ayniqsa, ahamiyatli bo'ldi⁵⁶. Olim badiiy matnni lingvopoetik tahlil qilishning asosiy tamoyillari sifatida quyidagilarni alohida ajratib ko'rsatadi:

1. Shakl va mazmun birligi tamoyili.
2. Makon va zamon birligi tamoyili.
3. Matn tilining umumxalq tili, uning turli ko'rinishlari va adabiy tilga munosabatini nazarda tutish tamoyili.
4. Badiiy matnga badiiy-estetik yaxlitlik, butunlik sifatida yondashmoq lozim.
5. Poetik aktuallashgan til vositalarini aniqlash tamoyili.
6. Eksplitsitlik va implitsitlik nisbatini aniqlash tamoyili.
7. Intertekstuallik mexanizmlarining lisoniy va semantik

xususiyatlarini aniqlash tamoyili. Xullas, ana shu umumiy tamoyillar asosida lingvopoetik tahlil olib borilganda, estetik butunlik sifatidagi badiiy matnning mohiyati va uni tuzuvchining mahoratini xolis baholash mumkin bo'ladi 57.

Tilning asosiy vazifalari sifatida aloqa-aralashuv vositasi (kommunikativ), bilim va ma'lumotlarni ajdodlardan avlodlarga yetkazish vazifasi (kumulyativ) qatorida emotsional-ekspressivlini ifodalash va tinglovchiga, o'quvchiga yetkazish funksiyasi ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Bu funksiyaning to'laqonli amalga oshirilishi esa she'riy matnda yetakchilik qiladi. "Ana shu xususiyatlarga ko'ra, poetik nutq prozaik nutqdan keskin farqlanadi va nutq muallifining his-tuyg'ularini emotsional-ekspressiv tarzda ifoda etgan holda, adresatga ta'sir qiladi, uning tuyg'ularini uyg'otadi" 58.

Shoir – so'z tanlaydi. So'zning ruhi va kishi ko'ngliga ta'sir etuvchi jihatlari rang-barang va serjilo bo'lgandagina haqiqiy she'r bo'la oladi. Negaki she'r – shoir anglagan, his qilgan olamning mevasi. Bu olamga kirib borish bizni nafaqat ijodkor olamiga yaqinlashtiradi, balki dunyoning sir-sinoatlarini tushunishga zamin hozirlaydi 59.

She'riy matnda har bir tovush (harf), bo'g'in, urg'u, ohang, so'z, birikma, jumlaning o'rni, qo'llanishi muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Shoir har bir til birligini mohirona qo'llagandagina ko'zlagan maqsadiga erisha oladi. Shu bois lingvopoetikaning fonopoetika, leksik poetika, poetik sintaksis yo'nalishlari uyg'un tarzda rivojlanib bormoqda.

She'riy matnning lingvopoetik tahlili emotsional-ekspressivlikni ifodalashda har bir til birligining ahamiyatini ochib berishga alohida ahamiyat berishni talab qiladi. Lingvopoetikaning she'riy matn tahliliga aloqador eng muhim qismi fonopoetika hisoblanadi. Fonopoetika orqali she'riy matnda hijolar, urg'u va ohang, to'xtamlarning lingvistik xususiyatlari va emotsionallikni oshirishdagi ahamiyati ochib

beriladi. "Poetik nutqdagi tovushlar bilan bog'liq o'zgarishlar, urg'u, to'xtam, bo'g'in, turoq kabi fonopoetik vositalarning tadqiqi poetik nutq sharhi va tahlilida muhim bosqich vazifasini o'taydi".

Fonopoetikada evfoniya hamda intonatsion-sintaktik tuzilish muhim rol o'ynaydi. Evfoniya, asosan, fonetik vositalar yordamida yuzaga keladi, nutqning xushohangligi ko'p jihatdan uning fonetik shakllanishiga bog'liqdir. Evfoniya she'riy nutqda, ayniqsa, katta ahamiyat kasb etadiki, shuning uchun she'rning fonetik tashkillanishiga alohida e'tibor beriladi. She'riy nutqning ritmlar tartibi, sintaktik tuzilishi va u bilan bog'liq intonatsiya elementlariga ko'ra tartibga solinishi she'rning intonatsion-sintaktik tuzilishini tashkil etadi. She'rning bunday tuzilishi badiiy nutqning emotsional ta'sirchanligini yanada oshiradi, xitob, undov va so'roq mazmunini ifodalovchi intonatsion-sintaktik gap qurilishlaridan maqsadga muvofiq foydalanishga imkon beradi.

Unli yoki undosh tovushlarni cho'zish, almashtirish, orttirish, tushirib qo'llash vositalarida ham ma'noni kuchaytirishga erishish mumkin.

Muhammad Yusuf she'riy asarlarini fonopoetik nuqtayi nazardan kuzatadigan bo'lsak, keskin tarixiy vaziyatlar, voqealar tasvirlangan she'rlarda shoir erkin vaznga murojaat qilgani va misralardagi hijolar miqdori turlicha va qisqa bo'lganini ko'ramiz. Masalan:

Tuzalmaydi dardim mening,

O'lsam kerak.

Tuproq bilan og'a-ini

Bo'lsam kerak.

O'lim nima? Bu ham bitta

Sayr, Ona.

O'g'ling qaro yerga ketdi,

Xayr Ona... (Mening dardim) 1

She'rda "a" tovushining 15 marta, "i"ning 10 o'rinda kelishi,

“o” ning 9 o’rinda, “u”ning 2, “ye” ning 5 o’rinda va “o”ning esa 3 o’rinda kelishi evfoniyani yuzaga keltiradi, shuningdek, fonopoetik mukammallikni, badiiy izchillikni ko’rsatadi.

She’riy matn ijodkordan so’z qo’llshga alohida yondashuvni, shakl va mazmun birligi va uyg’unligi uchun munosib til birliklaridan foydalanishni taqozo etadi. O’zbek she’riyatida ana shunday so’zni saylab, uning barcha ohanglarini anglab va tuyg’ulariga, g’oyalarga eng munosibini saralab qo’llagan shoir sifatida Muhammad Yusuf she’riyati ko’plab adabiyotshunos va tilshunoslar tadqiqotiga obyekt bo’lgan.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, lingvopoetika o’zining tahliliy tushunchalari, usullari va tamoyillariga ega bo’lgan alohida fan tarmog’i sifatida jadal taraqqiy etmoqda. Bu sohada amalga oshirilayotgan tadqiqotlar til birliklari, badiiy nutq yaratishdagi usul va vositalarning obrazlilikni ta’minlash, fikrning ekspressiv tarzda kitobxonga yetkazilishidagi muhim jihatlarini aniqlash, muallifning o’ziga xos uslubini belgilashda alohida ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati :

1. Fitrat A. Tanlangan asarlar. 4-jild. - Toshkent, 2006. -B. 12.

2.Yo’ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. - Toshkent, 2008. -159 b.

3.Yo’ldoshev M. Cho’lpon so’zining sirlari. - Toshkent, 2002. -80 b.

4. Yo’ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. - Toshkent, 2008. -B.159.

5. Abdupattoyev M. O’zbek tilining poetik sintaksisi. - Farg’ona, 2021. - B. 3.

6. Raziqov Z., Sheraliyeva G. Muhammad Yusuf she’rlari asosida o’quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash. Science and Education. Scientific Journal April 2021 / Volume 2 Issue 4. www.openscience.uz

7. Tursunova O. O’zbek tili fonetik birliklarining poetik

imkoniyatlari: Fil. fan. b.fals.doktori.diss. - Farg'ona, 219. - B.21;

8. Quronov D, Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. - Toshkent: Akademnashr, 2010. - B. 355.

9. Yusuf M. Xalq bo'l, elim. - Toshkent, 2019. - B.110.

Odilbek Ashirov,

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti o'qituvchisi

“CODEX CUMANICUS” TADQIQIGA OID QARASHLAR

Qipchoq tillarini o'rganishga hissa qo'shgan Yevropaning asosiy olimlaridan biri Geza Kuun – Géza Kuun (1838–1905) dir. Venger olimi Geza Kuun qipchoq-kuman tilining asosiy manbasi bo'lgan “Codex Cumanicus”ni o'rganishda hal qiluvchi rol o'ynadi. U 1880-yilda “Codex Cumanicus Bibliothecæ ad templum divi Marci Venetiarum” deb nomlangan kitobning birinchi to'liq nashrini chop ettirdi. Uning asari qipchoq-kuman tilining lingvistik, tarixiy va madaniy ahamiyatiga qaratilgan. Asar qo'lyozma yodgorlik bo'lib, o'rta asrlar qipchoq turkiy tili va madaniyatini o'rganishda muhim tarixiy va lingvistik manba bo'lib xizmat qiladi. Asl nusxa Italiyaning Venetsiyasida joylashgan Avliyo Mark kutubxonasi (Biblioteca Marciana) da saqlanadi. Qo'lyozma taxminan 20x14 sm o'lchamdagi 82 varaq qog'ozdan iborat bo'lib, varaqlarning ikki tomonida matn mavjud. Qo'lyozma italyancha (1-110-betlar, lotinchaforscha-kumancha lug'at) va nemischa (111-164-betlar, kumancha-nemischa lug'at va matnlar) qismlardan iborat. Qipchoq tilini yetkazish uchun lotin yozuvi qo'llanilgan bo'lsa, lotin tilida qipchoq tili comanicum, chomanicho (kuman), qipchoqning o'zida tatarče, tatar til deb ataladi.

1880-yilda venger tilshunosi Geza Kuun tomonidan tahrirlangan ushbu keng qamrovli nashr qo'lyozmani ilmiy qaydlar va lug'atlar bilan birga to'liq taqdim etgan birinchi nashr bo'ldi. Mazkur asar uch tilli lug'at bo'lib, unga lotin, qipchoq-turkiy (kuman xalqi tili) va fors tillari kiradi. Bu bo'lim turkiyzabon xalqlar bilan muloqotda bo'lgan savdogarlar va missionerlar uchun lug'at bo'lib xizmat qilgan. U turkiy lug'atning eng qadimgi ma'lum namunalaridan birini ifodalaydi.

Soʻzlashuv kitobi va grammatika boʻyicha qaydlar: “Kodeks” oddiy soʻzlar roʻyxatidan tashqari, qipchoq tilida muloqot qilish, xususan, mintaqadagi savdo va missionerlik faoliyati uchun foydali muhim iboralarni qamrab olgan amaliy soʻzlashgich elementlarini oʻz ichiga oladi. Unda qipchoq tilining asosiy gap tuzilishi va lisoniy xususiyatlarini belgilovchi grammatik eslatmalar ham mavjud. Lugʻatning italyancha qismi lotin tilidagi muqaddimadan va uchta ustunda – lotin, fors va kumanda yozilgan uch tilli lugʻatdan iborat. Bu lugʻat, oʻz navbatida, ikkita roʻyxat – 1560 ta lotin soʻzidan iborat alifbo tartibida va 1120 ta soʻzdan iborat tematik roʻyxatdan iborat. Ikkala roʻyxatda ham lotin ustunining tarjimasi toʻliq emas, masalan, tematik roʻyxatda 200 ga yaqin lotincha soʻzlarning tarjimasi yoʻq. Nemischa qismi, italyan tilidan farqli oʻlaroq, tizimlashtirilmagan va turli xil qoʻlyozmalarda yozilgan boʻlib, unda tartibsiz soʻzlar va iboralar toʻplamidan kuman-nemis va kuman-lotin lugʻati, kuman tilidagi nasroniy matnlari, lotin matnlarining kuman tarjimalari va lotin tarjimalari mavjud. Ikkala qismda ham kuman tili grammatikasi boʻyicha qaydlar mavjud – feʼllarning tuslanishi, olmoshlar, sifatlar va otlarning oʻzgarishi haqida maʼlumotlar keltiriladi.

Diniy matnlar va xalq ogʻzaki ijodi materiallari (topishmoqlar): Qoʻlyozmaning ikkinchi qismida lotin va turkiy tillarda nasroniy ibodatlar, madhiyalar va diniy koʻrsatmalar mavjud. Unda kuman xalqining dunyoqarashi, hazil-mutoyiba va ogʻzaki ijodi haqida qimmatli maʼlumot beruvchi topishmoqlar va maqollar kabi madaniy matnlar ham mavjud. Kodeks tarixdagi 47 ta turkiy topishmoqlar toʻplami va qipchoq-kuman tiliga birinchi marta tarjima qilingan “Xudoning oʻn amri”, “Injil” kabi kitoblar parchalar taqdim qiladi.

Tarixiy va lingvistik ahamiyati: Asar nafaqat tilshunoslik vositasi, balki kuman qipchoqlari va ularning Markaziy Osiyo, Yaqin Sharq va Yevropadagi qoʻshnilari oʻrtasidagi tarixiy

munosabatlarni aks ettiruvchi madaniy hujjatdir. O'rta asrlarda turkiy tillarning tarqalishi va ularning boshqa til guruhlariga ta'sirini tushunish uchun muhim manba hisoblanadi. Matn turkiy tillarning hozirda deyarli yo'qolib ketgan tarmog'ini hujjatlashtirish, qipchoq turkiy shevalarini o'rganish uchun qiyosiy tilshunoslarga boy ma'lumotlar taqdim etishi bilan noyob hisoblanadi.

Lug'atlar va ilmiy izohlar: Qo'lyozmaning Geza Kuun nashri keng qamrovli ilmiy izohlar va lug'atlarni o'z ichiga oladi, ularda til xususiyatlari, madaniy kontekst va tarixiy ahamiyati haqida batafsil tushuntirishlar mavjud. Ushbu qo'shimchalar qo'lyozmaning tilshunoslar, tarixchilar va antropologlar uchun foydaliligini oshiradi.

Asarning tuzilishi:

1-qism: Lug'at (lotin-qipchoq-fors).

2-qism: iboralar, xalq og'zaki ijodi materiallari.

3-qism: Diniy matnlar va amaliy grammatika.

Bu kitob turkiy tillarni o'rganish, o'rta asrlar madaniy aloqalari va qipchoq xalqlari tarixini o'rganish uchun asosiy matn bo'lib qolmoqda. Uning ilmiy ahamiyati nodir turkiy til va madaniy merosni asrab-avaylash va ommalashtirishdadir.

Asarning Geza Kun nashri birinchi qismidan ayrim misoldlar keltiramiz: Lotin: dominus; qipchoqcha: beg; forsha: xudo. Ushbu so'z uch tilda xo'jayin unvonini ko'rsatadi. Qipchoqda beg odatda hukmdor yoki boshliqni bildirish uchun qo'llanilgan, bu atama turkiy kelib chiqishi bo'lib, hozirgi turkiy tillarda so'zlashuvchi madaniyatlarda hamon bey kabi unvonlarda uchraydi. Fors tilida xudo so'zi iloh; ega degan ma'nolarni anglatadi, bu uning diniy va dunyoviy kontekstda ishlatilishida aks ettadi.

Lotin: aqua; qipchoqcha: su; forsha: ob. "Suv" tushunchasi ushbu uch tilda o'z aksini topgan. Su(v) turkiy so'z bo'lib, bugungi kunda ham turli turkiy tillarda qo'llanilmoqda. Forsha ob qadimgi ildizlarga ega bo'lgan, forslar ta'siri

ostidagi hududlarda ham keng qo'llaniladi. Ushbu yozuv geografik yaqinlik tufayli turli til guruhlari o'rtasidagi umumiy asosiy lug'atni ko'rsatadi.

Lotincha: panis – qipchoq: nan; forsha: non. Qipchoqda ham, forsa ham tushunchasi uchun “non” so'zi ishlatiladi. Bu so'z hozirgi turkiy va fors tillarida ham ko'p qo'llaniladi. Bu xalqlarning ratsionida nonning madaniy ahamiyatini ko'rsatadi va yaqin o'zaro ta'sirlar tufayli o'zlashma yoki parallellar rivojlanishni ko'rsatadi.

Lotincha: equus; qipchoqcha: at; forsha: asb. “Ot” turkiy xalqlarning ko'chmanchi an'analari hamda forsa va Yevropa jamiyatlarida otliqlarning ahamiyati tufayli bu uch madaniyatda ham muhim atama hisoblanadi. Turkiy tillarda ot bugungi kunda ot so'zi bo'lib qolib, uning tildagi azaliy o'rnini ko'rsatadi. Fors asblari ham xuddi shunday chuqur ildizlarga ega.

Lotincha: canis; qipchoq: it; forsha: sag. “It” so'zi tillar bo'yicha farqni ko'rsatadi. Turkiy it hozirgi zamon turkiy tillarning katta ko'pchiligida, jumladan, qozoq va qirg'iz tillarida ham qo'llaniladi.

Lug'at lotinzabon missionerlar, qipchoq tilida so'zlashuvchi turkiy ko'chmanchilar va forszabon mintaqalar o'rtasida muloqot qilish uchun ko'prik vazifasini o'taydi. “Codex Cumanicus”ning ushbu qismi savdo, diniy o'zgartirish va kundalik muloqot uchun zarur bo'lgan amaliy lug'atni ko'rsatadi. Lug'at to'g'ridan-to'g'ri tarjimalarni va madaniy ahamiyatga ega so'zlarni aks ettiradi, ko'pincha uch guruh o'zaro ta'sir qilgan yoki bir-biriga lingvistik ta'sir ko'rsatgan sohalarni ta'kidlaydi.

Kodeksda ifodalangan qipchoq turkiy tili turkiy tillarning qipchoq bo'limiga kiradi, u o'rta asrlarda Yevroosiyoda, ayniqsa, Oltin O'rda va boshqa turkiy-mo'g'ul siyosiy birliklari tarkibiga kirgan kuman va qipchoq ko'chmanchilari orqali katta rol o'ynagan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Codex Cumanicus Bibliothecæ ad templum divi Marci Venetiarum primum ex integro edidit prolegomenis notis notis and compluribus glossariis instruxit

2. [https://ru.wikipedia.org/wiki/ Кодекс_Куманикус](https://ru.wikipedia.org/wiki/Кодекс_Куманикус)

3. Гаркавец А. Н. Codex Cumanicus: Половецкие молитвы, гимны и загадки XIII-XIV веков // Кыпчакское письменное наследие. – Алматы: КАСЕАН; Баур, 2007. – Т. II. – С. 69-70.

4. Ashirov, O. (2023). "MUQADIMAT UL – ADAB" QIPCHOQ LANJASIGA OID QAYDLAR AKS ETGAN MUMTOZ MANBA. Евразийский журнал академических исследований, 3(9), 164–167. извлечено от <https://www.in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/20816>

5. Codex Cumanicus Bibliothecæ ad templum divi Marci Venetiarum primum ex integro edidit prolegomenis notis notis and compluribus glossariis instruxit

6. [https://ru.wikipedia.org/wiki/ Кодекс_Куманикус](https://ru.wikipedia.org/wiki/Кодекс_Куманикус)

7. Гаркавец А. Н. Codex Cumanicus: Половецкие молитвы, гимны и загадки XIII-XIV веков // Кыпчакское письменное наследие. – Алматы: КАСЕАН; Баур, 2007. – Т. II. – С. 69-70.

Nozima Xusniddinova,

Toshkent davlat yuridik universiteti

Jinoiy odil sudlov fakulteti 1-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: filologiya fanlari nomzodi,

dotsent D.Rasulmuxamedova

“O‘TKAN KUNLAR” VA BUGUNGI KUNIMIZ

Adabiyot tarixi juda ko‘p yaxshi asarlarni ko‘rgan, hozir ham shunday, yaxshi asarlar ko‘p, ammo esda qolarli asarni yozish har kimning ham qo‘lidan kelavermaydi. Mana shunday buyuk adabiyot durdonalaridan biri bu Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanidir. Bu asarni qayta va qayta o‘qish lozim, negaki, asarni birinchi marta o‘qigan inson undan juda ko‘p narsa oladi, ikkinchi marta o‘qiganda esa, yana yangi ilm xazinasiga yo‘l ochiladi. Har safar shunday, ya‘ni asarning yangi qirralari tugamaydi. Bu romanni bir marta o‘qigan inson asar ostidagi haqiqatni aslo ko‘ra olmaydi. Xo‘sh, aslida bu asar bizdan nimalarni yashirib kelmoqda?

Avvalo, romandagi asosiy qahramonlarga to‘xtaladigan bo‘lsak, Kumush obrazi bilan boshlamoqchiman. Barchamizga tanish bo‘lgan Kumush timsolida aslida nimalar yashiringan? Asarda ilk bor Kumushni uchratganimizda u xasta edi. O‘sha paytlari yurtimiz ham xasta edi , davlatdagi siyosiy muammolardan tashqari ichki muammolar ham uning porloq kelajagiga to‘siq bo‘layotgan edi. Otabek obrazini men bir yurtning vatanparvar farzandi sifatida ko‘raman. Kumushga, ya‘ni Vataniga bo‘lgan muhabbati tufayli, u bilan oila qurdi va uni qanday bo‘lsa, shundayligicha sevdi. Zaynab obrazi esa xalqning ongsizligini ifodalaydi. U juda yosh va sodda edi, o‘zi mustaqil ravishda yaxshi fikrlay olmas, balki boshqalar fikri uni boshqarardi. Shu holatda Otabekning ikkinchi ayoli bo‘lib oila qurdi, lekin bu turmush sevgi va muhabbatga asoslangan nikoh emas, balki ota-ona orzusi edi.

Agar oila qurishga bugungi kun nigohi bilan qarasak, Konstitutsiyamizga ko'ra, nikoh O'zbekiston xalqining an'anaviy oilaviy qadriyatlariga, nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligiga va teng huquqliligiga asoslanadi. Shu normani roman bilan bog'lasak, Otabek o'z ixtiyoriga ko'ra Kumush bilan oila quradi, ammo Kumush garchi nikohdan oldin Otabekni bir marta uchratib yoqtirib qolgan bo'lsada, uning to'yi aynan Otabek bilan bo'layotganligini bilmaydi. Hozirgi qonunchilikka ko'ra, bir tomondan Kumushning nikoh tuzishga bo'lgan huquqlari buzilgan desa bo'ladi. Nikohdan so'ng yosh oila Kumushning uyida yashay boshlaydi, ular er-xotinning turish va yashash joyini erkin tanlash huquqidan foydalanishgan. Ikkinchi tomondan, Otabek va Zaynabning nikohi e'tiborni tortadi. Otabek bu nikohga qarshi bo'ladi, lekin ota-ona orzusi uchun ikkinchi marta uylandi. Davlatimizning hozirgi oila huquqi qonunchiligida nikoh tuzish erkin hisoblanib, nikoh tuzishga majburlash taqiqlanadi. Oila qonunchiligimizda yana bir tamoyil, yagona nikohning tan olinishi tamoyiliga ushbu romanda amal qilinmaganligini ko'rish mumkin. Albatta, bu holatni hozirgi qonunchilik bilan tahlil qilishda o'sha paytdagi holatni bilish zarur. Ya'ni u paytlari oila qurishga bo'lgan munosabat bugungi kundagidan ancha farq qilgan. Shu bilan birga u paytlarda qo'shxotinlik ayb hisoblanmagan, hozirda faqatgina yagona qonuniy nikoh davlat tomonidan tan olinadi. Asar voqealarini aks ettirgan davrda oilaga bo'lgan munosabat umuman boshqacha bo'lgan va barcha voqealar o'sha payt zamon talabi hisoblangan.

Yozuvchi ushbu romanni Kumushning Zaynab tomonidan zaharlanib vafot etganligi bilan tugatadi. Bir insonning boshqa bir insonni o'ldirishi og'ir jinoyat hisoblanadi. U paytlarda o'lim jazosi mavjud bo'lgan bo'lsa ham, bu jazo og'ir jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan belgilangan hamda insonlar birbirini o'ldirishi eng qadimgi davrlardan beri gunoh hisoblanib kelgan. Yashash huquqining mavjudligi va o'lim jazosining

taqiqlanishi eng birinchi diniy manbalarda belgilangan, keyinchalik huquq manbalarida oz aksini topdi. Zaynab esa to'g'ridan to'g'ri qotillikka qo'l urdi. Uning jinoyatini jinoyat tarkibi elementlari bo'yicha ham tahlil qilish mumkin. Ushbu jinoyatning obyekti – Kumushning hayoti, uning yashash huquqi hisoblanadi, ijtimoiy xavfli qilmish aynan yashash huquqiga qaratilgan ijtimoiy munosabatlardir. Jinoyatning obyektiv tomoniga ko'ra, Zaynab ijtimoiy xavfli qilmish sodir etganligi, ya'ni Kumushning zaharlaganligi hamda ijtimoiy xavfli oqibat – Kumushning zaharlanish natijasida vafot etganligidir. Zaharlab o'ldirish – bu jinoyat sodir etish usuli, zahar esa, jinoyat qurolidir. Jinoyat tarkibining keyingi elementi bu subyektdir, asardagi holatda jinoyat subyekti – Zaynab. O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligiga ko'ra, jinoyat sodir etguniga qadar o'n olti yoshga yetgan, aqli raso shaxs jinoyat subyekti bo'lishi mumkin. Zaynab ham bu talablarga javob bera oladigan shaxs edi, lekin u jinoyat sodir etganidan so'ng aqli rasoligini yo'qotadi. Shu hodisa uning jinoyat subyekti ekanligini istisno etadi. Romanda ham Zaynabning jinoiy javobgarlikka tortilmaganligini uchratamiz, bu orqali avval ham hozirgi normalarning mavjud bo'lganligini ko'rish mumkin. Jinoyat subyektiv tomonining asosiy belgisi sifatida qasd bilan qamrab olingan jinoyatni tushunishimiz mumkin, chunki Zaynab jinoyat sodir etayotganida shunday oqibat ro'y berishini xohlagan. Uning, ya'ni jinoyatning maqsadi – Zaynabning o'z eri bilan birga baxtli yashashiga xalaqit berayotgan to'siqni yo'q qilish edi va bu to'siq uning kundoshi Kumush edi. Zaynab o'z erini yaxshi ko'rardi, lekin eri uni emas, balki faqat Kumushni sevdi, shu sababdan Zaynab qotillik qilishgacha bordi. Bu yerda motiv (jinoyat sodir etish uchun bo'lgan turtki, sabab) – Otabekning ayollari o'rtasidagi muvozanatni teng miqdorda ushlay olmaganligi, Kumushni yaxshi ko'rib, Zaynabga nisbatan befarqligi; Kumushning ataylab Zaynab bilan tortishishi; Zaynabning opasi uning

ruhiyatiga ta'sir qilganligi. Kumushning vafot etishini jinoyat tarkibi bo'yicha shunday tahlil qilish mumkin.

Boshqa tomondan, Zaynab qotillikka qo'l urayotganda u Xushro'y opasining aytganini qilib bu ishni bajaradi. Bundan ko'rinib turibdiki, opasi Zaynabning ruhiyatiga ta'sir qilib, uni jinoyat sodir etish yo'liga yetaklaydi. Agar Kumush yo'q bo'lsa, eri Otabek Zaynab bilan birga bo'lishini, Kumush bor ekan, ular hech qachon baxtli bo'la olmasligini Zaynabga aynan Xushro'y uqtiradi. Zaynab sodda va yosh hisoblanganligi uchun o'z xatti-harakatlarini qanday oqibatlariga olib kelishini yaxshi anglamaydi. U faqatgina sevilishni istagan edi, natijada, eng yaqin insonini butunlay yo'qotdi. U faqat jufti halolini yo'qotgani yo'q edi, u o'zligini yo'qotdi.

Ushbu asosiy qahramonlar alohida ma'noga ega hisoblanadi. Kumushni o'z Vatanimiz timsolida tushunish joiz. Abdulla Qodiriy bu romanni yozib bo'lganidan so'ng juda qattiq yig'lagan ekan, undan buning sababini so'rashganda, u shunday javob bergan: "Kumushni o'ldirib qo'ydim". Aslida bu shunchaki badiiy asar, Kumush esa shu asarning qahramoni bo'lishi mumkin, buning uchun yig'lash noo'rindek tuyuladi. Biroq, Kumush – bu bizning Ona-Vatanimiz, qaysi inson o'z Vatani o'limini tasavvur qila oladi? Yozuvchi Vatani kelajagi Kumushnikidek yakun topishidan xavotirlangan bo'lsa ajab emas. Otabek esa Vatani chin dildan sevguvchi, uning uchun har nega tayyor bo'lgan sodiq farzanddir. Bunday vafodor insonlar hayotda kamdan kam uchraydi. Zaynab – xalqning saviyasidir. Xalqimiz u paytlar juda sodda va ishonuvchan bo'lganki, nima yaxshi, nima yomon farqiga bora olmagan. Ba'zilar o'zgalar gapiga ishonib, o'z yaqinlarini sotgan, yana ba'zilar o'z Vatani tarixini begonalardan noto'g'ri talqinda o'rgangan. Bunday vaziyatlar ko'p bo'lgan bo'lsada, hech kim haqiqat uchun kurashmagan, hech kim adolat talab qilmagan hamda adolat izlaganlarga ham sherik bo'lmagan. Nega endi xalq birlashmagan? Nega birlashib birga harakat

qila olmagan? Nega ularni ongsiz, savodsiz hisoblaganlarning aytganini qilib yuravergan? Bu juda achinarli holat, "O'tkan kunlar" ni tushunib o'qigan inson ham, albatta, Zaynab uchun achingan bo'lardi. Otabekni jang maydonida shahidlarcha vafot etganligi to'g'risida xat keladi, lekin u o'lmaydi, Kumush ham o'lmagan. Ularning farzandi tirik qolgan edi va u xalqni zulmatdan yorug'likka olib chiquvchi bir nur edi. Kumushning farzandi tirik ekan, Vatanning vafot etishi imkonsizdir. Bizning Vatanimiz juda ko'p qiyinchiliklar ko'rdi, lekin u yengilmadi, taslim bo'lmadi. Otabek va Kumushning avlodlari hozir ham bor, ular barhayot. Vatani uchun kurashadigan har qanday inson Otabek va Kumushning muhabbati mevasidir. Men hozirgi kunda bunday insonlarni o'qituvchilar misolida ko'raman, ular yurt kelajagini tarbiyalaydi va savodli bo'lishi uchun kurashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulla Qodiriy. O'tkan kunlar / roman / "Abadiy barhayot asarlar" turkumi / "Ilm-ziyo-zakovat" nashriyoti, 2019. – 432 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Rasmiy nashr. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2023. – 120 b.
3. <https://civil.uz/abdulla-qodiriyning-o-tkan-kunlar-romani-haqida-tohir-malik-sharhi/>
4. <https://lex.uz/mact/-111453>

